

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO‘MITASI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Himoyaga ruxsat

Kafedra mudiri _____

20__y. “ ____ ” _____

**Boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan
foydalanishni takomillashtirish mavzusida**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bitiruvchi	_____	_____
	(imzo)	(f.i.sh.)
Ilmiy rahbar	_____	_____
	(imzo)	(f.i.sh.)
Taqrizchi	_____	_____
	(imzo)	(f.i.sh.)
Maslahatchi	_____	_____
	(imzo)	(f.i.sh.)
HFX bo‘yicha maslahatchi	_____	_____
	(imzo)	(f.i.sh.)

Toshkent – 2014

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO‘MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment fakulteti, Menejment va marketing kafedrası, 5340200-Menejment yo‘nalishi

TASDIQLAYMAN

Kafedra
mudiri _____

20__y. “__” _____

Talaba Babakulov Sardor Madumarovichning

Boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan
foydalanishni takomillashtirish mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga

T O P S H I R I Q

1. Mavzu universitetning 20__-yil “__” ____dagi ____-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.
2. Ishni himoyaga topshirish muddati _____.
3. Ishga oid dastlabki ma’lumotlar: Prezident asarlari, iqtisodiy darsliklar, qonun, qaror, farmonlar va boshqa me’yoriy hujjatlar, ilmiy jurnallar, korxona moliyaviy hisoboti hamda internet ma’lumotlari.
4. Hisoblash-tushuntirish yozmalar mazmuni: Kirish, Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mohiyati va nazariy jihatlari, Boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati, Iqtisodiy sohalarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, Hayot faoliyati xavfsizligi, Xulosa.
5. Grafik materiallar ro‘yxati: Prezentasiya va slaydlar.
6. Topshiriq berilgan sana: __.__.2014-yil.

Rahbar _____
(imzo)

Topshiriq
oldim _____
(imzo)

7. Ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha maslahatchilar:

Bo‘lim	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
1	Iminova N.	___.___.2014	___.___.2014
2	Iminova N.	___.___.2014	___.___.2014
3	Iminova N.	___.___.2014	___.___.2014
4	Qodirov F.	___. ___.2014	___.___.2014

8. Ishni bajarish grafigi

T/r	Ish bo‘limlari nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslahatchi) imzosi
1.	Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mohiyati va nazariy jihatlar	___.___.2014	
2.	Boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati	___.___.2014	
3.	Iqtisodiy sohalarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	___.___.2014	
4.	Hayot faoliyati xavfsizligi	___.___.2014	

Bitiruvchi _____
(imzo)

20__ yil “ ____ ” _____

Rahbar _____
(imzo)

20__ yil “ ____ ” _____

Ushbu malakaviy bitiruv ishida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mohiyati va nazariy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy sohalarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

В данной выпускной квалификационной работы рассмотрены общие атрибуты и особенности коммуникационных технологий. Проанализированы использование информационных систем и технологий в области управления с профессиональной точки зрения. Приведены предложения и рекомендации по улучшению эффективности и применение информационно коммуникационных технологий в экономической деятельности.

In the given final qualifying work reviewed the overall attributes and features of communication technologies. Analyzed the use of information systems and technologies from professional perspective. Provided several suggestions, recommendations, and references on the ways of improving the efficiency and effectiveness of business activities in the overall economic infrastructure.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	6
1. AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI.....	9
1.1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'рни.....	9
1.2. O'zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari.....	13
1.3. Korxona boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar.....	18
2. BOSHQARUV FAOLIYATIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI.....	22
2.1. O'zbekiston Respublikasida elektron boshqaruv usullari va elektron xokimiyat modelining rivojlanish bosqichlari.....	22
2.2. "O'zbektelekom" AK faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash va tahlil etish.....	39
3. IQTISODIY SOHALARDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	48
3.1. Korxona boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'llari.....	48
3.2. Korxona boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalalib marketing tadqiqotlarini olib borish...	54
4. HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI.....	62
4.1. Baxtsiz xodisalar va ularni tergov qilish.....	62
4.2. Aloqa korxonalari va tashkilotlarida mehnat muxofazasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish va ularning bajarilishi ustidan nazorat.....	64
4.3. Turli favqulotda vaziyatlarning umumiy tavsiflari.....	69
XULOSA	
ADABIYOTLAR RO'YHATI	

KIRISH

Ushbu malakaviy bitiruv ishi Boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mavzusida bo‘lib, unda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv faoliyatidagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari, hozirgi holati va foydalanish jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish sohalarini axborotlashtirish jamiyat rivojlanishining ob‘ektiv jarayoni hamda zarur bo‘lgan axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va takdim etishning tabiiy davomidir. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, aloqa, ilmiy-tadqiqot, ta‘lim, tibbiyot va biznes sohalaridagi mehnat sifati, mehnat unumdorligi va samaradorlik darajasini yuksaltirish ularda tadbqiq qilinayotgan eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘plangan axborot mahsulotlarini kishilarga tezkor sur‘atda etkazib sermehnatlik darajasini kamaytirgan holda mavjud muammolarni hal etish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shuning uchun ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samarali qo‘llash mamlakatni texnologik va iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida quyidagilarni aytib o‘tdilar:

“biz qisqa vaqt mobaynida nafaqat axborot xizmatlari ko‘rsatishning ko‘plab turlari bo‘yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida yuksak darajaga erishgan ilg‘or mamlakatlar safiga qo‘shilishimiz zarur”.¹

¹Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qatiyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar mahkamasining majlisidagi maruzasi.

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida to'laqonli sheriklik o'rnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanish ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligini oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi».

Axborotlashgan jamiyat iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan yanada yuksalishga, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishga, iqtisodiyotni makro va mikro darajada boshqarishni takomillashtirish hamda istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga katta zamin yaratib beradi. Bunday jamiyatni barpo etish ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari va axborot kommunikatsiyalar texnologiyalarini ilg'or ishlab chiqarish sohalarida qo'llash hamda materiallar va xom-ashyo yaratish bilan chambarchas bog'langan. Jamiyatning asosiy ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchi sanalmish inson barkamolligi yo'lida axborotlashtirish jarayonlari asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. U insonlarga eng zamonaviy kompyuter texnika vositalarini amaliyotda keng qo'llash bo'yicha malakasini oshirishga va o'zining tugamas qobiliyatini amalda sinab ko'rishga katta imkoniyat tug'diradi. Shunday ekan, yuqoridagi masalalarni ko'rib chiqib, mazkur ishda ko'rilgan mavzu dolzarb mavzuni tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rt bo'lim, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mohiyati va nazariy jihatlarini, boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati, iqtisodiy sohalarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda hayot faoliyati xavfsizligi bo'limlaridan iborat.

Birinchi bo'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mohiyati va nazariy jihatlarini ko'rib chiqilgan. Korxona faoliyatini takomillashtirishda axborot

kommunikatsiya texnologiyalarini mohiyati o'rganilgan. Shuningdek, bu bo'limda O'zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari batafsil yoritib berilgan. Jumladan, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining Davlat xavfsizligi, iqtisodiy isloxlarni rivojlantirish, jaxon iqtisodiy xamjamiyati tarkibiga kirish va zamonaviy dasturiy maxsulotlar bozorini shakllantirishda afzallik hamda kamchiliklari ko'rib chiqilgan.

Navbatdagi bo'lim boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati ko'rib chiqilgan bo'lib, unda dastavval O'zbekistonda elektron boshqaruv usullari va elektron hukumatning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shu bilan birga milliy operatorimiz "O'zbektelekom" AK faoliyati tahliliga ham bag'ishlangan bo'lib, unda dastavval kompaniya faoliyati samaradorlik nuqtai-nazaridan tahlil qilingan. Aksionerlik kompaniyasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan loyihalar va kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar ko'rib chiqilgan.

Uchinchi bo'limda iqtisodiy sohalarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari, marketing tadqiqotlarini olib borish masalalari ko'rib chiqilib, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida "Huey Hire" loyihasi orqali korxonalarda ish unumdorligini oshirish choralari o'rganilgan.

To'rtinchi bo'limda hayot faoliyati xavfsizligi masalalari, baxtsiz xodisalar va ularni tergov qilish hamda aloqa korxonalari va tashkilotlarda mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish batafsil ko'rib chiqilgan.

1. AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI

1.1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'рни

Jahon bozorida barcha mamlakatlar XXI asrda bevosita “industrial jamiyatdan” “axborotlashgan jamiyatga” o'tishni boshladi. Muqarrarki, jahon iqtisodiyotining kelajagini, tabiiy boyliklar bilan bir qatorda (neft, gaz, ko'mir, metallar va h.k.), axborot omillari belgilaydi, axborot sohasini rivojlanish birinchiligida esa jahon doirasida kuchlarni joylashtirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Axborotlashgan jamiyatda axborot borgan sari strategik manbaaga aylanmoqda. Kuchli, raqobatdosh iqtisodiyotlarni, shuningdek dunyoning barcha qismlarda industriashtirishdan so'ngi va bozor iqtisodiyotida yangi jarayonlar paydo bo'lishi global iqtisodiyot miqyosini kengaytirdi.

Dunyo bo'yicha axborot tarmoqlari, kapital, ish kuchi va bozor tarmoqlari texnologiyalar, foydali vazifalar, odamlar va xududiy yaqinlik bilan bog'lanmoqda. Ushbu jarayonlar axborotni bosh manbaa sifatida asoslantiradi. Axborot iqtisodiy omil bo'lib qoldi va axborot sohasiga sarmoyalar doimiy ravishda muntazam oshib bormoqda. Ana shulardan kelib chiqib O'zbekiston hukumati axborotlashgan jamiyat shakllanishi va ushbu sohani iqtisodiy rivojlanish hamda aholi farovonligi darajasini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida belgilab oldi. Ayniqsa axborot texnologiyalar o'рни zamonaviy bozor iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalar iqtisodiyot tarmoqlarida ishni samarali tashkil qilish bilan bir qatorda, soha tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar spektrini kengaytirish va sifatini oshirishda faol tadbiriq etilib ishlatilmoqda. Ular iqtisodiyotning ko'pgina sohalarida katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayrim kompaniyalar va milliy iqtisodiyotlar raqobatdoshligi, davlatning mahalliy va chet el sarmoyadorlar uchun qulayligi ko'p jihatdan axborot infratuzilmasi va axborot xizmatlarining rivojlangan darajasiga bog'liq. Milliy axborot manbalari iqtisodiyot

va jamiyat rivojlanishning eng zaruriy tarkiblarning biriga aylandi, u borgan sari ayrim davlatlarning global raqobatdoshlik darajasini belgilab beradi.

Mazkur izlanishning dolzarbligi, birinchi navbatda, korxonalarda axborot texnologiyalarni o'rni oshganligi hisoblanadi. Korxonalar faoliyatini islohotlashtirish va ularni ho'jalik ishlarini olib borishda bozor usullariga o'tish davrida davlat va korxonalari o'zlari ham, axborot texnologiyalarni qo'llash sohasidagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning keng tajribasini hisobga olishlari lozim. Bugungi kunda korxona faoliyatini samaradorligini oshirish va sog'lom raqobatdosh kurashish, axborot texnologiyalar sohasidagi zamonaviy texnologiyalar xizmatlaridan foydalanmasliksiz tasavvur qilish qiyin.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shaxsiy, ommaviy va ishlab chiqarish kommunikatsiyalari yordamida axborotni tayyorlash, qayta ishlash va etkazib berish bilan bog'liq obyektlar, xatti-harakatlar va qoidalar majmuini, shuningdek sanab o'tilgan jarayonlarni integral ravishda ta'minlaydigan barcha texnologiyalar va sohalarni bildiradi.

Jahon tajribasi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asosan ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Geografik va vaqt to'siqlarini buzib o'tib, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jahondagi har bir kishi bilan onlayn rejimida aloqa bog'lash va ma'lumotlar olish imkonini beradi, ijtimoiy-iqtisodiy xatti-harakatlarning global mobilligini oshiradi.

AKTning tarqalishi globallashtirish sharoitida axborotlashtirishning rivojlanish sur'atlarini, xalqaro kapital harakatini tezlashtiradi, butun dunyoda axborot tarmoqlari vositasida xizmat ko'rsatish sohasi yanada kengayib boradi. Jahonning bir qator taraqqiy etgan mamlakatlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi ushbu mamlakatlar hukumatlari tomonidan ustuvor yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatilgan va o'zining rivojlanish sur'atlari bo'yicha iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ilgarilab ketgan. Hozirgi zamon sharoitida AKT sohasining rivojlanish darajasi, aholi boshiga AKT sarflari, Internetdan foydalanish va uni joriy etish darajasi alohida mamlakatlar va umuman jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan hisoblanadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning ulkan potensialidan to'liq hajmda foydalanish biznes, alohida shaxslar va butun jamiyatni qamrab olgan har tomonlama iqtisodiy islohotni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi, chunki AKT alohida fuqarolarning hayoti va faoliyatiga va umuman mamlakatimiz infrastrukturasiga faol kirib bormoqda. Bu yo'nalishlar quyidagilardir:

- davlat va siyosiy boshqaruv;
- ta'lim va ilm-fan;
- sog'liqni saqlash va tibbiyot;
- telekommunikatsiyalar va ommaviy axborot vositalari;
- biznes va savdo;
- madaniyat va san'at;
- ishlab chiqarish.

AKTning davlat boshqaruviga joriy etilishi iqtisodiyot rivojlanishini tezlashtirish, davlat sektoriga sarflarni qisqartirish yo'li bilan mehnat unumdorligini va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish imkonini beradi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan o'zaro aloqasini takomillashtiradi.

AKTlar kichik biznes va shaxsiy tadbirkorlikka ham mehnat unumdorligini, huquqiy savodxonlikni oshirish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Biznes bilan yoki iste'mol mollarini sotib olish bilan shug'ullanayotgan fuqarolarning AKT orqali bozor narxlari va tovarlarning sifatlari to'g'risidagi axbrotga keng kirib borish imkoniyatlariga ega ekanliklari ularga ratsional tijoriy qarorlar qabul qilish va samarali iste'molchilik tanlovini amalga oshirishga yordam beradi. Biznes bilash shug'ullanuvchilar uchun yangi kompyuter modellarining maxsus yaratilishi va rivojlantirilishi Internet vositasida olib boriladigan savdoning misli ko'rilmagan ekspansiyasiga sabab bo'lmoqda. An'anaviy chegaralarni buzib o'tgan misli ko'rilmagan darajada ko'p biznes turlarining rivojlanishi tufayli pul va xizmatlarni tez va arzon taklif etish imkoni tug'ildi. Shuni ta'kidlash lozimki, AKTdan foydalanish biznes sohasida bitimlar samaradorligining takomillashuviga katta

hissa qo'shdi. Masalan, Yaponiyada shunday katta va qulay magazinlar tarmoqlari faoliyat ko'rsatadiki, ularda tovarlarga bevosita uydin yoki ofisdan turib, nafaqat telefon orqali, balki Internet orqali ham buyurtma berish mumkin.

Hozirgi zamon sharoitida ko'pchilik korxona rahbarlari axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga korxona faoliyati samaradorligini maksimal darajada oshirish instrumenti sifatida qaramoqdalar. Tashkilotlar esa qaror qabul qilish ishlarini soddallashtirish va operatsiyalarni amalga oshirish tezligini oshirish uchun elektron pochta va Internetga borgan sari ko'proq tayanmoqdalar. AKTdan uzoq muddat davomida foydalanish natijasida savdo menejmentining yangi turi bo'lgan tarmoqli taklif menejmenti vujudga keldi.

Marketingning bu turi barcha tovar bo'limlari va savdo bo'limlari, shuningdek ishlab chiqarish va ta'minot seksiyalari hamda ulgurji va chakana savdo nuqtalari o'rtasida mahsulot taqsimlash va axborot etkazib berishda eng qulay yo'llarni taqdim etadi. Hozirgi paytda AKT infratuzilmasini yaratish va qo'llab-quvvatlash, sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida zarur shart sharoitlarni ta'minlash uchun kadrlar tayyorlash ishiga juda katta mablag'lar sarflanmoqda. Bugungi kunda davlatlar, taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash xalqaro institutlari, alohida donor tashkilotlar, xususiy sektor va ijtimoiy tashkilotlar jahon taraqqiyotida AKT rolini oshirish yo'lida hamkorlikda muhim va samarali xatti-harakatlarni amalga oshirmoqdalar. Ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, yangi xizmatlarni rivojlantirish va mahalliy sharoitlardan optimal foydalanishda ulkan potentsialga ega bo'lgan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari davlat tuzilishini, xususan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohalarni takomillashtirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Demak, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirishning milliy strategiyasi bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda, O'zbekistonda demokratik tuzumni mustahkamlashda birinchi darajali vazifa bo'lib xizmat qiladi.


1.2. O'zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari

Xozirgi kunga kelib axborot resurslarini yig'ish, qayta ishlash, uzatish va iste'molchilarning shaxsiy talablaridan kelib chiqqan holda ushbu resurslarni tayyorlash bilan shug'ullanadigan turli xildagi axborot kommunikatsiyalar biznesi vujudga kelgan bo'lib, ular ushbu bozor negizidir. 1990-yilning asosiy xususiyatlaridan biri - axborot kommunikatsiyalar biznesida turli va yangi ishtirokchilarining paydo bo'lishidir. Ularning qatorida ma'lumotlar bazasini ishlab chiquvchilar, turli interaktiv xizmatlar, axborot vositachilarini sanab o'tish mumkin.

Axborot kommunikatsiyalar biznesi ishtirokchilari o'rtasida bozor munosabatlarining shakillanishi, raqobatchilikning o'ziga xos usullari ishlab chiqilishi hamda potensial istemolchilarning vujudga kelishi – bular barchasi xalqaro va milliy interaktiv xizmatlarning shakillanib borayotganligidan darak beradi. Quyidagi 1-rasmda ushbu bozor ishtirokchilarining o'zaro tashkiliy - funksional aloqalarining chizmasi berilgan. Undan ko'rinib turibdiki, axborot kommunikatsiyalar bozorining segmentlari, obyekt va subyektlari hamda ishtirokchilari bir butun tizimni tashkil qilmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, axborot kommunikatsiyalar bozorini respublikamizda shakillantirish va rivojlantirishda davlatni tutgan o'rni kattadir.

Jahon axborot kommunikatsiyalar texnologiyalari yutuqlarining tahlili axborot kommunikatsiyalar biznesining funkional modelini ishlab chiqishga imkon berdi.

Berilgan mazkur modeldan ko'rinib turibdiki, axborot kommunikatsiyalar biznesi uchta asosiy omil bilan tariflanadi: muhit, bozor va vazifalar. Bu omillarning majmuasi interaktiv xizmatlarni shakillantirish bo'yicha yagona moliyaviy-iqtisodiy siyosatni yuritishga yordam beradi.



1.1 - rasm. Axborot kommunikatsiyalar bozori ishtirokchilari tashkiliy funksional aloqalari


Dasturiy maxsulot, ma'lumotlar bazasi va ekspert xizmatlari turidagi axborot maxsulotlari hisoblash quvvati, xotira va o'tqazish imkoniyati kabi xususiyatlariga ko'ra strategik ahamiyatga ega bo'lib borayapti. Taxlillarimiz axborot kommunikatsiyalar biznesi tovarlaridan keng ko'lamda foydalanmasdan turib davlat miqyosidaga quyidagi asosiy masalalarni xal etish mumkin emasligini ko'rsatadi:

1. Davlat xavfsizligi. Xozirgi kunda intellektual dasturiy tizimlar bizga ma'lum va ma'lum bo'lmagan turli qurollardan ko'ra davlatni ximoya qilishning eng takomillashgan vositalaridan hisoblanadi va uning xavfsizligini ta'minlaydi;

2. Iqtisodiy isloxlarni rivojlantirish. Bozor iqtisodi munosabatlarini judayam samarali va takomillashgan darajaga olib chiqishda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llamasdan bo'lmaydi;

3. Jaxon iqtisodiy xamjamiyati tarkibiga kirish. Iqtisodiy o'sishning asosiy muammolaridan biri - investitsiya faoliyatini jadallashtirish va sanoatga mablag' jalb etishni kengaytirishdan iborat, chunki chet el kapitalini jalb etish milliy iqtisodni rivojlantirishning strategik masalalaridan;


4. Zamonaviy dasturiy maxsulotlar bozorini shakllantirish va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan turlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturiy maxsulotlarni shlab chiqarish shunday soxalarga taalluqliki, u rivojlanish yo'lida yuksalib bormoqda.



1.2 - rasm. Axborot kommunikatsiyalar biznesining funksional modeli.

Xozirgi kungacha axborot maxsulotlari va xizmatlari tasniflash borasida umumiy ilmiy yondoshuv yo'q. Ushbu muammoni xal qilishda olimlar baholi qudrat o'z xissalarini qoshishgan. Lekin ular taklif qilgan tasniflash tizimlarida

axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib borishi tendensiyasi va interaktiv xizmatlarning tutgan o'rni to'liq hisobga olinmagan. Yetakchi interaktiv xizmatlar faoliyatining taxlili xamda olib borgan tadqiqototlarimiz asosida axborot maxsulotlari va xizmatlarining quyidagi tasniflash tizimi keltirilgan. 1.3-rasm.



1.3 - rasm. Axborot mahsulotlari

Axborot maxsulotlarini qayta ishlashdagi texnika va aloqa vositalari rivojlanishi axborot industriyasining tarkibiga katta ta'sir etmoqda. Ma'lumotlarni uzatish borasida global va milliy tarmoqda rning shakllangani bois foydalanuvchidan uzoq masofada joylashgan ma'lumotlar bazasiga muloqotli kirishi jaxonda axborot xizmatlarining asosiy turlaridan bo'lib hisoblanadi. "Onlayn" turidagi ma'lumotlar bazasi sonining absolyut o'sishi va ularning tijorat asosidagi sonining ko'payishi kuzatilamoqda.

Shunday axborot maxsulotlari mavjudki, ular bizning kelajagimizni aks ettiradi va uzoq vaqt unga nisbatan talab yuqori bo'lmaydi. Bunday turdagi axborot maxsulotlari yo'qolib ketmasligi kerak, chunki fanning axborot bilan kerakli darajada ta'minlanmasligi jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiradi. Bu esa o'z navbatida ilmiy-tadqiqot ishlarini qaytadan olib borishga majbur qiladi. Foydalanuvchilarning axborot resurslariga kira olish imkoniyati mamlakatning axborot kommunikatsiyalar biznesini shakllantirish yo'lida asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ayni shu ko'rsatkich bo'yicha sanoati rivojlangan mamlakatlardan ortda qolmoqda. Buning asosiy sabablarini quyidagicha deb bilamiz:

- a) davlat axborot resurslarining ko'p qismini tijorat asosida tarqatib bo'lmaydi;
- b) axborot resurslari ommaviy foydalanish uchun anchagana qimmat;
- v) ko'pgina kategoriyadagi resurslar ma'lumotnoma va yo'naltiruvchi vositalarga ega emas;
- g) elektron axborot resurslarining ayrim qismi o'zaro to'g'ri kelmaydigan kompyuter qobiqlarida joylashgan;
- d) resurslarning ko'pgina egalari axborotlarni tarqatishni ta'minlovchi texnologiya va vositalarga ega emas.

Axborot maxsulotlariga kirish foydalanuvchilarning moliyaviy sharoiti bilan bog'lanib qolmoqda, bu esa moliyaviy imkoniyati chegaralangan foydalanuvchilarning faoliyat unumdorligani pasaytiradi. Shuning uchun tijorat

ma'lumotlar bazasidan tashqari umumiy foydalanishga mo'ljallangan notijorat ma'lumotlar bazasini xam yaratish maqsadga muvofiqdir.

1.3 Korxona boshqaruv faoliyatida axborot kommunikatiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari

Axborot inqilobi, nafaqat yangi echimlar va yangi imkoniyatlarni, balki yangi muammolarni ham keltirib chiqaradiki, ular vaqt o'tishi bilan tobora yaqqolroq namoyon bo'ladi va o'z echimini talab qiladi. Yangi texnologiyalarning joriy qilinishi katta moddiy va ishchi kuchi sarflarini talab etadi, shuning uchun hamma mamlakatlar ham bu yo'lda birdek say-harakatlarni amalga oshira olmaydi. XXI asr boshida yer kurrasida yashovchi 6.1 mlrd kishidan 80% o'z hayotida biron marta ham telefondan, 93% kompyuterdan foydalanmagan. Bunday holat kelgusi jahon siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy to'sqinlik qilishi mumkin. AKTning rivojlanish darajasiga ko'ra mamlakatlarni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- yuqori darajada rivojlangan ITP ga ega bo'lgan taraqqiy etgan mamlakatlar: shu jumladan a) AKTning tezkor rivojlanish davlat dasturlarini qabul qilganlari (Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Shvestiya, Finlyandiya, Franstiya); b) hozircha bu sohada maxsus davlat dasturlariga ega bo'lmaganlari (Germaniya, Norvegiya, Islandiya, Italiya, Avstraliya);

- o'rtacha darajadagi ITP ga ega mamlakatlar (Grestiya, Portugaliya, Sharqiy Evropa mamlakatlari);

- AKTni tezkor rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlar qabul qilgan mamlakatlar (Hindiston, Rossiya, Estoniya, Malayziya, Singapur, Meksika, Qozog'iston, Qirg'iziston);


- AKTni tezkor rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlarga ega bo'lmagan, o'rtacha darajadagi ITP ga ega mamlakatlar (ko'pchilik Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlari), O'zbekistonni ham shu guruhga kiritish mumkin;

- AKTni joriy qilish uchun mablag'i bo'lmagan juda past darajadagi ITPga ega mamlakatlar;

- Afrika mamlakatlari (JAR bundan mustasno), Osiyoning ayrim mamlakatlari (Afg'oniston).

Bugungi kunda G'arbiy Evropadagi AKT bozorlari eng faol rivojlanayotgan, Sharqiy Osiyo, Sharqiy Evropa va Janubiy Amerika bozorlari esa sust rivojlanayotgan bozorlar qatoriga kiradi. AQSh va Yaponiyaning AKT bozorlari mo''tadil sur'atlarda rivojlanayotgani ko'zga tashlanadi. Jahon AKT bozori bugungi kunda atigi ikki-uch yil avvalgidagiga nisbatan ancha murakkab tuzilish kasb etdi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bozori tarkibiga mikroelektronika, asbob-uskunalar va dasturiy ta'minotni ishlash va ishlab chiqarish, telekommunikatsiyalar, mobil servislar, Internetga kirish huquqini ta'minlash, Internet axborot resurslari va elektron biznes kiradi. Evropa axborot texnologiyalari observatoriyasi (www.eito.com) mutaxassislarining e'tirof etishlaricha, butun AKT bozori telekommunikatsiyalar bozori va axborot texnologiyalari bozoriga bo'linadi. (4-rasm)



1.4 - rasm. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bozorining tuzilishi.

Hozirgi paytda axborot texnologiyalari (AT) sektori telekommunikatsiyalar bozoriga nisbatan jadal sur'atlarda rivojlanmoqda: axborot texnologiyalarining

mahalliy va jahon bozorlaridagi talabgirliги, ularni yaratishda xom ashyo bozorlari, transport harajatlari, joriy etish bo'yicha harajatlarning ozligi axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga oid sohalarning maksimal daromad keltirishini ta'minlamoqda. AT bozorida AKT bozorining boshqa segmentlarini qisqartirish hisobiga axborot xizmatlari ko'rsatish ulushining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Internet kishilarni guruhlariga birlashtirish tamoillarini tubdan o'zgartirib yuboradi, barcha jamiyat qatnashchilari (hukumat, fuqarolar va hukumat) o'rtasida ma'lumotlar bazasini tobora samaraliroq shakllantirish va almashinish instrument bo'lib xizmat qiladi, shuningdek yangi AT segmentlari (elektron biznes, "Elektron hukumat")ning yuzaga kelishida asos vazifasini o'taydi. Barcha tarmoqlar TCP/IP protokoli va IP-manzillarning yagona makonidan foydalanadilar, qolgan barcha o'rinlarda ular ma'muriy va moliyaviy jihatdan mustaqildirlar. Internetning o'ziga xos belgilari bu uning arzonligi va ommaviyligidir: Internetdan foydalanuvchilar soni har yili ikki martaga ko'payib bormoqda. Internetning o'sib borishida mobil telefonlar hal qiluvchi o'ringa ega bo'ldi.

Dasturiy ta'minot (DT) bozori AKT bozorining eng harakatchan va daromadli segmentlaridan biridir. Dasturiy mahsulotning tahlili va dizayni texnologik jihatdan eng murakkab jarayonlar bo'lib, ancha qimmat turadi. Bevosita dasturlash va test sinovlaridan o'tkazish loyiha umumiy qiymatining faqat 10-15 % (borib tursa, 30%) ni tashkil etadi va yuqori malakani talab qilmaydi. Aynan dasturiy ta'minot AKT bozorining qolgan segmentlariga nisbatan qo'yilma ko'rsatkichi bo'yicha ancha samaralidir.

AKT rivojining hozirgi zamon bosqichida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining konvergenstiyasi (bir biriga o'xshashligi) yuz bermoqda. Bu jarayon texnologik echimlarning yanada differentsiallashuvi va murakkablashuvi bilan sodir bo'lmoqda. Bunday konvergenstiya universal texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Masalan, zamonaviy multimedia tizimlari hozirgi paytdayoq televizor, radiopriemnik, fotolaboratoriya, diaproskop, telefon, avto javob bergich, faks vazifalarini o'zida birlashtirishga qodir bo'lib, hisoblash

funkstiyalarining klassik to'plamini va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlariga kirish huquqini ta'minlaydi. Har bir foydalanuvchining individual ehtiyojlariga osongina moslashish bunday tizimlarning o'ziga xos xususiyatidir.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojining jahon tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan elektron davlat boshqaruvi har qanday davlat uchun zaruratga aylanadi, va u qancha tez joriy etila boshlasa, shuncha yaxshi. "Elektron hukumat" davlat boshqaruvining o'rini egallamaydi, ammo AKTga asoslanib, davlat o'z funkstiyalarini optimallashtirishga axborot to'plashni tezlashtirishga va, qolaversa, hukumat qabul qilayotgan qarorlarga ta'sirko'rsatuvchi sonsiz omillarni hisobga olishga qodir bo'ladi.

Zamonaviy AKTlar davlat tuzilishini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, yangi xizmatlarni rivojlantirish va mahalliy sharoitlardan optimal foydalanish, tabiiy resurslarni iqtisod qilish va atrof muhit muhofazasi uchun ulkan potentsialni o'zida jamlagan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini hayotning barcha jabhalariga joriy qilish bilan bog'liq sodir bo'layotgan keng masshtabli qayta o'zgartirishlar davlat tomonidan barcha manfaatdor mamlakatlar bilan ittifoqda nazorat qilinishi va butun jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

2. BOSHQARUV FAOLIYATIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI

2.1. O'zbekiston Respublikasida elektron boshqaruv usullari va elektron hokimiyat modelining rivojlanish bosqichlari

Davlat sektorida boshqarishning elektron usulini qonunchilik asosida rivojlantirish. Hozirgi davrda axborot kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) jaxon miqyosida hayotga keng qo'llanishi industrial jamiyatdan axborot jamiyatga o'tishi bilan tavsiflanadi. AKT rivojlanishi umuman iqtisodiy sohalarning raqobatbardoshligini va davlat boshqaruv samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida AKT keng joriy etilishi uchun zaruriy shartlari bo'lib xuquqiy va uyushtirish shartlari hisoblanadi, bu esa o'z navbatida jamiyatni demokratik o'zgarishlariga olib kelib aholini axborot resurslarni erkin olishiga, uzatishiga va tarqatishga xuquq beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 2007 yil 23 avgustdagi Vazirlar Mahkamasida o'tkazilgan yig'ilishda o'zining ma'ruzasida ma'muriy isloxotning asosiy bir yo'nalishi bo'lgan "progressiv axborot kommunikatsion texnologiyalarni davlat boshqarish tizimiga bosqichma-bosqich joriy qilib, uni mukammallashtirib borib keraksiz hisobotlarni va qog'ozli xujjat almashuvini qisqartirish"ini ta'kidlagan.

Davlat organlari va boshqaruvida AKTdan foydalanish quyidagilarga yordam beradi:

- ochiq turdagi fuqarolar jamoasini yaratishga;
- davlat boshqaruv samaradorligini ko'tarishga;
- davlat sektori xarajatlarini qisqartirishga;
- davlat organlari va boshqaruvi bilan fuqarolar xamda xo'jalik sub'ektlari orasidagi o'zaro munosabatlarni yuksalishiga.

Davlat sektoriga AKT joriy qilinishi iqtisodiyotni rivojlanishini tezlatadi, ish samaradorligini oshiradi, davlat muassasalarining ishlab chiqarish quvvatini ko'taradi.

Davlat sektorida elektron boshqaruv usulining maqsadi va masalasi quyidagilardan iborat:

- aholi, shaxsiy sektor va nodavlat jamiyatni davlat organlari va o'z-o'zini boshqaruv organlari xizmatlaridan maksimal darajada foydalana olish;
- AKTdan foydalanish yordamida davlat va o'z-o'zini boshqarish korxonalarida eng yuqori ish samaradorligiga erishish;
- biznes iqlimini yaxshilash natijasida chet el investitsiyasini kiritish;
- shaxsiy, jamiyatni va davlatni axborot xavfsizligini ta'minlash va demokratik rivojlanishini sharti bo'lgan erkin va teng xuquqlilik ravishda informatsiyani olish, tarqatish va foydalanishning samarali tizimini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi davlat sektoriga elektron texnologiyaning qo'llanishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishi bo'lib xuquqiy-normativ bazani mukammallashtirish hisoblanadi.

Shu yo'nalishdagi asosiy masalalardan biri bu elektron xujjatlarni yaratish va qo'llash borasida qonunchilik bazasini shunday yaratish lozimki, u umumiy axborot resurslar va tizimlardan foydalanish imkoniyatini, informatsiyaning konfidentsionalligini, shuningdek, oddiy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlashga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Davlat sektoriga AKT joriy qilishda xuquqlarni qayta ko'rishda asosiy savollar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- davlat organlari va boshqaruv axborot resurslari va axborot tizimlaridan erkin xolatda foydalanish xuquqini xar bir fuqaroga joriy qilish;
- internet tarmog'idan foydalanib davlat iqtisodiy ishlarini olib borish xuquqini ta'minlash (elektron tijorat, elektron xujjat almashuv, axborot xizmatlar);
- davlat tomonidan AKTdan foydalanilganda uning axborot xavfsizligini ta'minlash;
- axborot kommunikatsion tizimlarda yuritiladigan elektron xujjatlarning xaqiqiylikni aniqlash qoidalarini urnatish;
- axborot jamoaning xuquqlarini mukammallashtirish, chunki xar bir axborot

fuqaro elektron texnologiyani davlat sektoriga joriy qilganidan so'ng yangilikni sezmog'i lozim.

Davlat sektorida AKTdan foydalanish uchun xuquqiy-normativ bazaning quyidagi yo'nalishlarini mukammallashtirish lozim:

- AKT sohasi bo'yicha umumiy qonunchilikni kompleks ravishda mukammallashtirib, xalqaro qonunchilik bilan muvofiqlashtirish;

- informatsiyaning ochiqqligini saqlagan holda, lekin konfidentsional informatsiyalardan foydalanishga chegara qo'yilgan holda informatsiya xuquqiy tartibini aniqlash;

- kompyuter jinoyati haqida qonun loyixasini tayyorlash;

- konfidentsial informatsiya haqida qonun loyixasini (ishdagi sir, tijorat siri, bank siri va x.k.) tayyorlash;

- axborot xizmatlarni ko'rsatish qoidalarining normativ aktlarini ishlab chiqarish (elektron xujjat ayirbolash, axborot resurslaridan foydalanish va x.k);

- elektron xujjat ayirboshlash jarayonida axborot tizimini yaratish, ularning o'zaro munosabati, informatsiya xavfsizligi va muxofazasi uchun standartlar ishlab chiqish.

Boshqarishning elektron usuli deganda avvalambor xamma xujjatlarni elektron ko'rinishga o'tkazish va davlat elektron oldi-sotdi jarayonini rivojlantirish demakdir. Shu bilan birgalikda davlat biznes sohasida ish olib borayotgan fuqarolarga zamonaviy AKT qo'llash bo'yicha o'rnak bo'lmog'i lozim.

Davlat elektron oldi-sotdi jarayonining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ochiqlik (ziddiyatni qaytarish);

- teng xuquqlilik (davlat buyurtmasini olishda raqobatni kuchaytirish);

- tejamkorlik (davlat sotib oladigan maxsulotlariga ketadigan xarajatlarni kamaytirish);

- samaradorlik (konkurs bo'yicha oldi-sotdi jarayonini tezlashtirish).

Davlat oldi-sotdi jarayoniga o'tishida bir necha misolar bo'lib, ulardan biri qonuniy-xuquqiy bazani mukammallashtirishdan iborat. Elektron bozor uchun albatta elektron bojxona bo'lmog'i lozim, busiz xalqaro elektron savdo bo'lmaydi.

Shuning uchun bojxona xujjatlarini rasmiylashtirish, xujjatlarni soddalashtirish, xalqaro amaliyotga mos kelishi va xalqaro birikmalar ES, SNG bilan integratsiya qilishi uchun xuquqiy bazani kengaytirish kerak. Faraz qilinadiki, agar yuk bojxonasidan tovar o'tmog'i lozim bo'lsa, albatta uning elektron pasportida belgilangan bo'lmog'i lozim.

AKTni O'zbekiston Respublikasi davlat sektoriga joriy qilish va rivojlantirish maqsadida bir qator qonunlar qabul qilingan:

- "Informatsiya erkinligi muqarrarligi va kafolati" (12.12.2002 y);
- "Informatsiya haqida" (11.12.2003 y);
- "Elektron raqamli imzo haqida" (11.12.2003 y);
- "Elektron tijorat haqida" (29.04.2004 y);
- "Elektron xujjat almashuv haqida"(29.04.2004 y)

Keyinchalik esa qonunchilik bazasini kengaytirib quyidagi masalalarni hisobga olishga qaratilmog'i lozim. Bulardan:

- "Kompyuter jinoyatchiligi haqida";
- "Elektron to'lovar haqida";
- "Davlat boshqaruvi va xokimiyati bazasini yaratishda standartlari haqida";
- "Informatsiya xavfsizligi haqida";
- "Davlat elektron xizmatlari haqida";
- "Shaxsning elektron xujjatlar orqali tasdiqlanishi haqida" va x.k.

Bu qonunlarni qabul qilish orqali elektron davlat boshqaruviga o'tishning xuquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining xalqaro axborot birikmalari bilan integratsiya jarayonlari rivojlanadi.

Elektron xujjat almashuvi tizimi. Zamonaviy davlat boshqaruvi bo'lib electron xujjat ayirboshlash tizimi (E-XAT) xizmat qiladi. Xozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida "Davlat muassasalarida elektron xujjat ayirboshlash tizimini taxlili va baxosi" dasturi ishlamoqda.


Loyixaning asosiy maqsadi mavjud E-XATni barcha ustivorligini va kamchiligini o'rgangan holda tizimni hayotga joriy qilish qarorini qabul qiluvchi shaxslarga tushunarli ko'rinishda taqdim qilish.

Loyixaning mazmuni quyidagi masalalarning yechimidadir:

- davlat muassasalarida ish yuritish va xujjatlarning oqimini urganish;
- davlat muassasalariga E-XATni joriy qilish xuquqlarini taxlil qilish;
- davlat muassasalariga E-XATni joriy qilishda kelib chiqadigan muammolarni va xususiyatlarni aniqlash;
- davlat muassasalarida E-XAT joriy qilish maqsadini aniqlash;
- davlat muassasalariga E-XAT qo'llashdagi talablarni aniqlash;
- davlat muassasalarida ishlatish uchun tijorat dasturi sifatida O'zbekiston bozoridagi maxsulotlar ro'yxatini aniqlash;
- qo'llanilishi mumkin bo'lgan E-XATni test savollaridan o'tkazish.

Loyixani amalga oshirish oqibatida quyidagi amaliy natijalarga erishamiz:

- taklif etilayotgan E-XATning test natijalari asosida hisob tayyorlanadi;
- elektron xokimiyat joriy qilish kontseptsiyasiga E-XAT tanlash borasida taklifnoma tayyorlanadi.



2.1 - rasm. E-XAT saytining hozirgi ko'rinishi. (www2.exat.uz)

Xozirgi vaqtda test savollaridan o'tish uchun quyidagi E-XATlari ro'yxatga olingan. Bular:

1. NCI-DOFLOW (o'zbek tadqiqot kompaniyasi NCI Projects)
2. "Efrat" (o'zbek SH.F. "Pro-Technika" va Nuron DS)

3. “Land Doces” (Rossiya kompaniyasi “Lanit”)
4. “Boss - Referent” (Rossiya kompaniyasi Aytı)
5. “Nan doc” (o’zbek kompaniyasi Detee)
6. “Documentum” (o’zbek kompaniyasi ETG)

Tizimning ishlashini ta’minlash uchun korxonalararo elektron xujjat ayirboshlash infrastrukturasini yaratmoq lozim. Buning uchun:

- boshqarish uchun zarur xujjatlar bilan ta’minlash borasida normativ-xuquqiy aktlar to’plash, yaratish va elektron xujjatlar ayirboshlash tizimini yagona tizimga keltirish (E-XAT);
- davlat organlari o’zaro xujjatlarini ayirboshlashda xujjatlarni standart mukammal shaklga keltirish;
- korxonalararo xujjat ayirboshlashda elektron lug’at va kataloglarni yaratish;
- yagona elektron xujjat ayirboshlash tizimi (E-XAT)dagi raqamli imzoni tasdiqlovchi Markazni yaratish;
- korxonalararo yaratilgan E-XAT koordinatsiyasi uchun marka yaratish (KKM).



2.2 - rasm. E-XAT tizimidagi xujjatning ko'rinishi. (www2.exat.uz)

KKM quyidagi funksiyalarni bajarmog'i lozim:

- ma'lumotlarni kafolatli yetkazish;
- elektron xujjatlarni marshrutini belgilash;
- ma'lumotlarni yaratish va ayirboshlash shaklini rivojlantirish;
- markazlashtirilgan holda normativ-lug'atiy axborotlarni kiritish;
- xujjatlarni portal orqali chop etish;
- umumiy xujjatlarni birgalikda ishlash sharoitini yaratish.

Korxona elektron xujjat ayirboshlash tizimida quyidagi vazifalar yuklanadi:

- xujjatlarning registratsiyasi;
- xujjatlarni tasdiqlash;
- xujjatlarni barcha jabxalar bilan kelishtirish;
- xujjatlar ustida jamoa bo'lib ishlashni uyushtirish;
- xujjatlar loyixasini yaratish (barcha jabxa uchun);
- bajarilish darajasini tekshirib turish;
- korxona arxivlari bilan bog'lanish;
- fuqarolar talablarini qayta ishlash.

O'zbekiston Respublikasida elektron xukumatning xolati va ravnaqi. Elektron xukumat deganimizda jamiyatda mavjud bo'lgan barcha tashqi va ichki aloqa xamda jarayonlarni AKT orqali amalga oshiruvchi xukumat tushuniladi. Elektron xukumat ravnaqi uchun quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan masalalarni yechmoqlik zarurdir:

1. Qog'ozsiz xujjat ayirboshlash asosida davlat tizimi va boshqaruvida o'zaro ta'sirni yaxshilash;

2. AKT asosida fuqarolar jamoasi sub'ektlari ishlari yuzasidan bajariladigan vazifalarni amalga oshirish.

Davlat boshqaruv organlariga EXni joriy qilish o'z samarasini beradi va quyidagilarni yechishga olib keladi:

- boshqaruv apparati ishlarini sezilarli darajada yuksaltirib, sarf-xarajatlarni kamaytirib, byudjetni yana ham samarali ishlatish imkoniyatini beradi;

- boshqaruvga oydinlik kiritib davlat organlari boshqaruvini jamoatchilik tomonidan nazorat qilish imkoniyatini yaratadi;

- jamoat jarayonlarini boshqarishning yangi mexanizmi yaratiladi.

Demak, elektron xujjatlarni (EX) davlat boshqaruviga qo'llash ma'muriy isloxotning asosiy vazifalarini ham yechib beradi. EX tushunchasi asosan 1990 yillarda kelib chiqqan bo'lsada, asosan xozirgi vaqtlarda ko'p e'tibor berilmoqda. Birinchilar qatorida EX yaratishda AQSH, Angliya va shuningdek Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya, Fransiya kabi davlatlar hisoblanadi. Sovet Ittifoqi davrida Pribaltika davlatlari bo'lmish Estoniya va Latviya respublikalarida boshlangan. Bu borada O'zbekistonda ilk qadamlar qo'yilgan desak yanglishmaymiz. Ayniqsa, oxirgi yillarda bu sohada ancha ishlar qilindi.

Prezidentning 2002 yilning 30 may oyda № PF-3080 sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" buyrug'ining ijrosi sifatida O'zbekiston xukumati tomonidan AKT rivojlantirish va EX qo'llash natijasida bir nechta ma'muriy xujjatlar qabul qilindi. Natijada yangi vertikal ijroiylar xokimiyati barpo qilinib korxonalararo yaratilayotgan informatizatsiya jarayonini boshqaruv dasturini bajarilishini nazorat qilish markazi yaratildi. Bu dasturni anchagina markaziy va maxalliy boshqaruv organlari ma'qullab, ko'pchiligi dasturning mustaqil strukturasi ega bo'lib, ularga korxonalararo informatizatsiya jarayonini joriy qilishga javobgarligi yuklatildi.

Natijada davlat boshqaruv organlariga yangi texnologik boshqaruv usullari kirib keldi. O'zbekiston Respublikasining Hukumat Portalining axborot resursi bo'lib Internet tizimida o'rnatilgan www.gov.uz portaldan iborat. U o'zbek, rus va ingliz tilida yozilgan. O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali davlat hokimiyati organlari faoliyatining funksional jarayon va tartibini qo'llab-quvvatlovchi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining elektron hamjihatlik infratuzilmasining tizimini tashkil etuvchi qism hisoblanadi. Portalning asosiy maqsadlari:

- fuqarolar va xo'jalik sub'ektlariga hokimiyat va boshqaruvi organlari tomonidan taqdim etiladigan axborot resurslari va xizmatlarining hajmini oshirishga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan axborot tizimini yaratish;

- O'zbekiston Respublikasi Hokimiyatining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali maqsadli auditoriyasini zarur muassasalar bilan o'zaro aloqa qilish jarayonlari va imkoniyatlari to'g'risida, fuqarolarning majburiyatlari va huquqlarining kelib chiqishi to'g'risida, davlat hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotlardan to'liq, tezkor va foydalanishda qulayligi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruvining rasmiy pozitsiyasini aks ettiruvchi keng ko'lamdagi axborotlar bilan ta'minlash;

- cheklangan xizmatlanishga mo'ljallangan axborotga kiritilgan ma'lumotlardan tashqari, tegishli axborot resurslarini joylashtirish va tashkil etish yo'li bilan fuqaro va tashkilotlarni davlat ijro hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi rasmiy axborotga kirishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini oshirish va milliy iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb etish uchun shart-sharoitlarni yaratish.



2.3 - rasm. O'z.R Hukumat Portalining hozirgi ko'rinishi. (www.gov.uz)

O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat modelining rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat modelini rivojlanish kontseptsiyasiga asosan modelning asosiy maqsadi davlat organlari boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish bo'lib bu sohada AKT keng joriy qilish bilan erishiladi. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi masalalarni yechish lozim:

1. Korporativ davlat kompyuter turini – INTERNET mujassamlantirish, qaysiki o'z ichiga elektron xujjat ayirboshlash jarayonini va barcha davlat boshqaruv jabxalarini o'z ichiga olsin (G2G);

2. Davlat xizmat sohalarini kengaytirish va turlarini yo'naltirish, qaysiki o'z ichiga Internet tarmog'ini olgan holda (G2C, G2B) va davlat xizmatlaridan teng xuquqda foydalanish;

3. Davlat organlari bilan fuqarolar va sub'ektlar orasida muloqot elektron tizimni yaratish va joriy etish (www.my.gov.uz);

4. Texnik axborotlar xavfsizligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida joriy qilinayotgan elektron xokimiyat modeli jahon andozalariga mos kelgan holda bir-biri bilan o'zaro bog'liq va mustaqil faol ko'rsatadigan bloklardan: davlat internetiga va tashki infrastukturasiga bo'linadi.

I. Davlat interneti. U ichki axborot tizim infrastukturasini qamrab olib, davlat organlari, korxonalararo bog'lanishni va o'zaro kelib chiqadigan masalalarni yechishda jamoa ishlarini o'z ichiga oladi. Davlat internetining asosiy ustivorligi bo'lib yagona transport muhitini muxofazalanganligidadir. Shuningdek, Davlat Internet bloki tarkibiga quyidagilar ham kiradi:

1. Portal www.my.gov.uz, muxofaza qilingan axborotlarga kirishni ta'minlaydi;

2. Tarmoqning xar xil pog'onalariga kirish ruxsatnomasini beruvchi markaz yaratish;

3. Tarmoqning bazasini yaratuvchi jismoniy va yuridik shaxslar ro'yxatini tuzish;

4. Elektron xizmat usullarini yaratuvchilar;

5. Portal www.my.gov.uz bilan korxona axborot tizimi orasida interfeys yaratish.

Davlat internetining asosi bo'lib elektron xujjat ayirboshlash, u davlat standartlari orqali boshqarilib, o'z ichiga kadrlarni, moliyani boshqarish dasturlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Davlat internetining rivojlanishi elektron hukumat modelining qanchalik joriy qilinganligiga bog'liq bo'lib, u bosqichma-bosqich hayotga qo'llanib boriladi.



2.4 - rasm. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining hozirgi ko'rinishi. (www.my.gov.uz)

O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal (keyingi o'rinlarda Yagona portal deb ataladi) Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portal doirasida, shu jumladan «bir darcha» rejimida faoliyat ko'rsatadi. Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrda 378-son qaroriga muvofiq ro'yxatga olish va avtorizatsiya qilish jarayonlaridan o'tgan arizachilar uchun amalga oshiriladi. Yagona portal davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

Yagona portal maqsad va vazifalari:

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarni axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;
- «elektron hukumat»ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko'maklashish.

The screenshot displays the 'Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali' interface. At the top, there's a search bar and navigation links for 'Xizmatlar bo'yicha' and 'Tashkilotlar bo'yicha'. On the right, a sidebar contains links for 'Davlat tashkilotiga murojaat yuborish', 'Davlat organi rahbariyati qabuliga yozilish', and 'Aloqa markazi: (8 800) 200-18-18'. The main content area is titled 'Davlat organi rahbarlari qabuliga yozilish' and features a 'Xizmat pasporti' button. Below this, a progress bar shows five steps, with '1-qadam' (1st step) currently active. The first step is labeled '1-qadam: Shaxsiy ma'lumotlar' and includes a note: '* beqisbi breni ajratilgan maydonlar to'ldirishi shart.' (Fields marked with an asterisk must be filled). The form contains input fields for 'Familyasi' (Family name) with the value 'Babakulov' and 'Ism' (First name) with the value 'Serdor'.

2.5 - rasm. Yagona Portali orqali Davlat organi rahbarlari qabuliga yozilish formasi. (www.my.gov.uz)

II. Tashqi struktura. U ommaviy axborot infrastrukturani o'z ichiga olib, asosan fuqarolar va iqtisodiy sub'ektlar bilan davlat organlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni tashkil qiladi (G2B).

Elektron hukumat modelini ishlash uchun quyidagilar lozim:

- davlat xizmatlar turini va sonini davlat axborot tizimni mukammallashtirish va kengaytirish orqali ko'paytirish;

- jamoa sub'ektlarini davlat elektron xizmatlariga erkin kirish uchun bir qator tadbirlar o'tkazilib, raqamlar tengsizligini kamaytirish kerak.

Elektron hukumat bajarishi mumkin bo'lgan davlat xizmatlarni quyidagi kategoriyalarga bulish mumkin:

- shaxsiy to'lovarni: daromad solig'i, transport solig'i va x.k;
 - ijtimoiy ta'minot xizmatlari;
 - guvoxbnomalarni qayd etish (tug'ilganligi, oila ko'rganligi);
 - shaxsiy xujjatlarni berish (pasport va xaydovchilik guvohnomasi);
 - shaxsiy mol-mulkni qayd qilish (uy-joy oldi-sotdi masalalari)
 - fuqarolarni manzilini qayd qilish va vaqtinchalik turar joyini va manzilini o'zgartirganligi haqidagi ma'lumot;
 - mexnat birjalari orqali ishga joylashish;
 - qurilish uchun ruxsatnoma olish;
 - sog'liqni saqlash tizimi xizmatlari;
 - oliy o'quv yurtlariga kirishi masalalari.
- “Davlat-biznes” tizimi uchun (G2B):
- mas'ul tashkilotlardan loyixa xujjatlariga ruxsat olish va kelishi masalalari (ekologiya, qurilish, tabiy qazilmalardan foydalanish)
 - litsenziya olish va uzaytirish;
 - zarur korporativ to'lovarni amalga oshirish (daromad solig'i, QQS, yer solig'i va x.k);
 - eksport-import tovarlar uchun yo'llanmalarni rasmiylashtirish;
 - statistik hisobotni tayyorlash;
 - xizmatlari turi oshgan sari bu qator yana kengayishi mumkin.

Axborot oqimning oydinligini va konfeditSIONalligi elektron hukumat infrastukturasiga qo'yilgan talablardan kelib chiqadi. Davlat xizmatlari tomonidan axborot xavfsizlikni buzilmasligi uchun quyidagi kontseptsiya o'z aksini topishi lozim:

- elektron xujjat ayirboshlovda xavfsizlik tizimini rivojlantirish;

- konfidentsial berilganlarni va axborot jarayonlarni ximoyasi bo'yicha choralar ko'rish kompleksi ishlab chiqish, qaysiki buzg'inchilardan, tajribasizlik oqibatida va tabiiy xodisalari tufayli buzilishi mumkin bo'lgan xollarni oldini olish;
- axborot ximoya vositalarini takomillashtirish;
- xodimlar, menejerlar va texnik xodimlar uchun talablar va qoidalar yaratish.

Aholi farovonligini yanada oshirish, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashning muhim omili sifatida aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish O'zbekiston hukumati siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Mazkur vazifaning mohiyati, maqsadi va istiqboldagi rivoji O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013 yilning 27 iyunida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida ham o'z ifodasini topdi. Mazkur qarorga muvofiq, 2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturning bosh maqsadi iqtisodiyotning barcha jabhalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni rivojlantirish, axborot resurslari, tizimlari va tarmoqlarining yaratilishini jadallashtirish, shuningdek aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari soni va sifatini yanada oshirishdan iborat.

2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shartli ravishda yana ikki dasturga bo'lish mumkin. Birinchi dastur – O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq va infratuzilmasini rivojlantirish bo'lsa, ikkinchi dastur – “elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi kompleksini yaratish.

Telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq va infratuzilmasini rivojlantirish dasturida keng polosali texnologiyalar yordamida simli va simsiz

aloqani, ma'lumotlar uzatish hamda ovozli trafik kommutatsiya markazlarini yanada rivojlantirish, magistral telekommunikatsiya tarmoqlarini ta'mirlash va kengaytirish, multimedia xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur infratuzilmani yaratish vazifalari belgilab olingan.



2.6 - rasm. “O‘zbektelekom” AK provayderlar uchun internet xizmatlari tariflari dinamikasi

Misol uchun, 2020 yilgacha keng polosali optik aloqa tarmoqlarini rivojlantirish va kengaytirish, undan so‘ng mamlakatning barcha hududlarida EDVO, 3G i 4G LTE baza stansiyalarini o‘rnatish ishlarini olib borish rejalashtirilgan. Korporativ sohalar uchun multimedia xizmatlarini ko‘rsatish studiyalarini ishga tushirish, axborot-ma’lumotnoma markazlari, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash, keshlash markazlari faoliyatini takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida “elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- “Elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari komplekslari va ma’lumotlar bazalarini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar hamda loyihalar ro‘yxati kompleks dasturi tasdiqlangan;

- Kompleks dastur – O‘zbekistonda “Elektron hukumat” tizimini joriy etishning o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 22 ta loyiha va 6 ta tadbirlarni o‘z ichiga oladi;

- Milliy axborot kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirishning Kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi tashkil qilingan.

Shu bilan birga Qo‘mita qoshida 2 ta yirik “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta’minlash markazlarini tashkil etish belgilangan.

O‘zbekistonda “Elektron hukumat” tizimini joriy etishning o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha grafiklar ishlab chiqilgan. Mazkur grafiklarda loyihalarni amalga oshirish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- Dastlabki loyiha oldi tadqiqotlarni o‘tkazish, bunda interaktiv xizmatlar bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish, mavjud holatini o‘rganish, va takliflar ishlab chiqish;

- Loyihani amalga oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish;

- Dastlabki texnik iqtisodiy hisob-kitoblarni ishlab chiqish;

- Dastlabki texnik iqtisodiy hisob-kitoblarni ekspertizadan o‘tkazish;


- Texnik topshiriq ishlab chiqish;

- Loyihani amalga oshiruvchini aniqlash bo'yicha tanlovlar o'tkazish;
- Loyihani amalga oshirishdan iboratdir.

“Elektron hukumat” tizimini joriy qilishning istiqbolli rejaları doirasida 2014-2016 yillarda idoralararo integratsiyalashgan platformani yaratish loyihasi amalga oshiriladi. Bu platforma barcha davlat organlari axborot tizimlarini birlashtiradi, aholiga ma'lumot olish, ariza topshirish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha idoralar o'rtasida ma'lumot almashishga xizmat qiladi.

Davlat organlarining aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro axborot almashinuvlari, muloqotlari, shuningdek bir qator davlat xizmatlarini ko'rsatish 2013 yilda ishga tushirilgan Yagona Portal orqali amalga oshirilmoqda.

Dasturga muvofiq, “elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish maqsadida ochiq kalitlar bazasida yagona identifikatsiya tizimini yaratish loyihasini tashkil qilish ko'zda tutilgan.



2.7 - rasm. Yagona identifikatsiya tizimi portalining ko'rinishi.

Jismoniy va yuridik shaxslar, transport, kadastr, ko‘chmas mulk, ma’lumot va klassifikatorlar jam qilingan milliy ma’lumotlar bazasi va reyestri, axborot tizimlarini rivojlantirishni muhim bosqichi hisoblanadi.

Shundan so‘ng, aholi va tadbirkorlarga davlat organlari xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish, davlat organlariga o‘z faoliyatlarini optimallashtirish, samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

2013-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi O‘zbekistonda axborot jamiyatini yanada rivojlantirish, mamlakatning jahon axborot makoniga yanada integratsiyalashuvida yangidan-yangi imkoniyatlarning yaratilishida muhim huquqiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.


2.2 “O‘zbektelekom” AK faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash va tahlil etish

Hozirgi kunda internet tarmog‘ining milliy segmentini rivojlantirish axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi uchun belgilab olingan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun, milliy domen internet-festivallari, “Kamolot” YTM tomonidan “Milliy internet tanlovi” o‘tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, joriy 2014-yilda UZINFOCOM tomonidan www.for.uz domenida bepul 3-darajali domen tarqatish aksiyasi tashkil etilgan va yil oxirigacha amal qiladi.

“O‘zbektelekom” AK ham milliy segmentni rivojlanishiga xissa qo‘shuvchi qator xizmatlarni amalga oshirib kelmoqda, jumladan Uztelecom Data Center – Tas-IX tarmog‘ida va internet tarmog‘ida veb-hosting, fayl hosting, milliy segmentda domenlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, “Videokonferensaloqa” xizmatlarini qulay narxlarda taqdim etadi, IPTV – xizmatlarini ham bunga misol ta’rifasida qo‘shishimiz mumkin. Shuningdek, “O‘zbektelekom AK” tomonidan Tas-IX

tarmog'ida dasturlarni yuklab olish uchun maxsus portal, turli mazmundagi fayllar bilan almashish uchun torrent treker amal qilmoqda.


www.tas-ix.net – torrent trekeri O'zbekiston Respublikasida eng katta torrentlardan bir hisoblanadi, bu trekerdagi tezliklar almashinuvi – 183 MB/S ni tashkil qiladi. Hozirgi kunga kelib ro'yhatdan o'tilgan foydalanuvchilar soni qariyb 31.000 kishini tashkil qiladi. Fayllar almashinuvining hajmi esa – 69.263 TB ni tashkil qiladi bu 69 ming GB ga teng, buni yuzerlar nisbati ko'radigan bo'lsak har bir foydalanuvchi uchun 2.25 GB ma'lumot to'g'ri kelmoqda, bu esa internet tizimimiz rivojlanayotganidan dalolat beradi.



2.8 -rasm. Tas-IX piring markazida (ichki segmentda) trafik aylanmasi (Gbit/s)

Tas-IX tarmog'ini rivojlantirish tashqi internet kanali sig'imini iqtisod qilishga yordam beradi, ichki trafik xalqaro kommutatsiya tarmog'i orqali emas, ichki tarmoqda aylanadi. TAS-IX piring markazi nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, Adliya Vazirligidan 2004-yil 27-yanvarida ro'yxatdan o'tkazilgan. Loyihaning asoschilari va dastlabki a'zolari "Amaliy Aloqalar Biznesi Ahborot Markazi" (BCC), "BUZTON" QK ("Beeline" savdo belgisi), "SarkorTelecom" MChJ, "Sharq Telekom" YAJ va "Texnoprosistem" MChJ (TPS)lardan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirda uning a'zolari soni 26 tani tashkil etadi.

"O'zbektelekom" Akning 2012-yilgi loyihalariga qo'shimcha optik tolali aloqa liniyalarini qurish, NGN (Next Generation Network – Yangi avlod tarmog'i) yangi avlod tarmoqlari texnologiyalarini amaliyotga tadbqiq etish hamda CDMA-450 mobil aloqa tarmog'ini modernizatsiyalash va kengaytirishga qaratilgan edi.



2.9 - rasm. Tas-IX tarmog'ida yillar davomida kuzatilgan eng yuqori tezlik

“O‘zbektelekom” AKning rasmiy veb-sahifasida 2014-yil 8-yanvarda berilgan ma’lumotga ko‘ra bugungi kunda respublikamizda tashqi internet tarmog‘i kanallari tezligi 10 Gbit/s dan oshib ketgan. Ushbu ko‘rsatkichni 13-rasmdagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, bugungi kunda tashqi trafik aylanmasining ichki trafik aylanmasiga nisbati 1:1 bo‘lmoqda, ya’ni tashqi internet tarmog‘i kanallarining teng yarmi iqtisod qilinmoqda. 2013-yil so‘ngidan amal qilayotgan 1 Mbit/s tashqi internet tarmog‘i kanali ijarasi narxining 312 AQSh dollarini tashkil etishini hisobga olsak (10 – rasmdagi ko‘rsatkich), har oyda tejab qolinayotgan mablag‘lar miqdori 3 million AQSh dollaridan ortib ketishini ko‘ramiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-dekabrdagi PQ-1855-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 3-yanvardagi 02-02/1-190-son bayoni asosida 2013-yilda amalga oshirilgan ishlar quyidagilardan iborat bo‘ldi:

1. “CDMA-450 mobil tarmog‘ini EVDO texnologiyasi qo‘llagan holda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida rivojlantirish”;
2. Xalqaro kommutasiya markazlarini NGN texnologiyasi asosida modernizasiya qilish va kengaytirish loyihasi;

3. “O‘zbektelekom” AK magistral tarmog‘ini O‘zbekiston Respublikasi tuman markazlarigacha zahiralash va kengaytirish”;

4. “FTTx texnologiyasi asosida keng polasali optik tarmoqlarni rivojlantirish” loyihalari amalga oshirildi.


2013 yildagi dasturlarga O'zbekiston Respublikasi Aloqa, Axborotlashtirish va Telekommunikatsiya Davlat Qo'mitasi bo'yicha kiritilgan loyihalarga asosan korxonalarning o'z mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hisobiga jami 242,5 mln. AQSh dollari o'zlashtirilib, reja (113,9 mln. AQSh dollari) 213 foizga bajarildi.

“O‘zbekiston Respublikasi hududlarida CDMA-450 mobil tarmog‘ini EVDO texnologiyasi yordamida rivojlantirish” va “FTTx texnologiyasi asosida keng polosali optik tarmoqlarni rivojlantirish” loyihalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-noyabrdagi PQ-2069-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi Investisiya dasturi”ning manzilli qismiga kiritildi.

“O‘zbektelekom” AK faoliyatining asosiy maqsadlarini quyidagicha ajratish mumkin:

- respublika aholisini, barcha hududiy bo‘linmalarni sifatli aloqa xizmatlari bilan ta’minlash;
- ko‘rsatiladigan xizmatlarning zamonaviy talablar darajasida bo‘lishini ta’minlash va zamonaviy texnika-texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish;
- aloqa xizmatlarini ko‘rsatish orqali daromad olishga erishish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasining jadal rivojlanib borayotganini hisobga olsak, zamonaviy texnologiyalarni sohaga tezkorlik bilan joriy etish talab etilishi ko‘rinadi. Shu nuqtai-nazardan, “O‘zbektelekom” AK investitsion faoliyati samaradorligini belgilovchi omillar sifatida loyihalarning qisqa muddatlarda, rejaga muvofiq amalga oshirilishini, zamonaviy texnologiyalarning amaliyotga uzluksiz joriy etib borilishini ko‘rsatish mumkin.



2.10 - rasm. 2013-yilda FTTx va xDSL texnologiyalari bo'yich abonentlar soni dinamikasi

FTTx texnologiyasi bilan bog'liq loyihalar natijasi o'laroq, 2013-yil davomida abonentlar sonining muntazam o'sganini ko'rishimiz mumkin. Abonentlar sonining har oyda o'rtacha 28% foizga ortib borishi FTTx texnologiyasi bilan bog'liq loyihalarning samarasini ifodalaydi. 2013-yil yakuni bo'yicha xDSL va FTTx texnologiyalari bo'yicha Internet xizmati foydalanuvchilari soni 183 875 tani tashkil etdi. 2012-yil yakuni bo'yicha abonentlar soni 111 811 tani tashkil etgan bo'lib, hisobot davrida mijozlar soni 72 064 taga ortgan. O'sishning umumiy sur'ati 165% ni tashkil etgan.

Joriy yilda FTTx texnologiyalari bo'yicha Internet xizmati foydalanuvchilari sonini oshirish maqsadida 7000 km dan ziyod Optik tolali aloqa kabellari xarid qilinadi.

Telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini 2013-2020-yillarda rivojlantirish dasturiga asosan 2013-yilda bir qator loyihalar amalga oshirildi. Xususan:

1. Kommutatsiya markazlari, jumladan, Qo‘qon va Buxoro shaharlaridagi xalqaro kommutatsiya markazlari sig‘imi 1 386 E1 portga (5 barobar) kengaytirildi va xalqaro kommutatsiya markazlari umumiy sig‘imi 3 262 E1 portga yetkazildi.

Xalqaro kommutatsiya markazini IMS yangi avlod tarmog‘i texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish loyihasi doirasida umumiy qiymati 9,3 mln. AQSh dollariga teng qurilmalar keltirildi va xalqaro kommutatsiya markazlarida uskunalarni montaj qilish ishlari olib borilmoqda;

2. Magistral, zonaichi va mahalliy tarmoqlarni zahiralash va kengaytirish, shuningdek, abonent tarmoqlarini FTTx arxitekturasida modernizatsiya qilish maqsadida umumiy uzunligi 2,1 ming km optik aloqa liniyalari qurildi;

3. Keng polosali ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini kengaytirish maqsadida, bir vaqtning o‘zida 128 ming keng polosali ulanishlarni amalga oshirish imkoniga ega qurilma o‘rnatildi;

4. 2013-2014-yillarda Axborot-ma’lumot xizmatlari markazini (Call-center) yaratish loyihasi bo‘yicha qurilmalarni keltirish va o‘rnatish uchun umumiy qiymati 1,45 mln. AQSh dollariga teng shartnoma imzolandi va hozirgi kunda hududlarda qurilmalarni o‘rnatish uchun joylar tayyorlanmoqda;

5. Ko‘p foydalaniladigan ma’lumotlarni saqlash maqsadida 2013-yilda quvvati 4 Gbit/s ma’lumotni saqlash va qayta ishlash imkoniga ega Keshlash markazi o‘rnatildi va ishga tushirildi. Keshlash samaradorligi 35% - 42% tashkil etadi va hozirgi kunda umumiy internet kanalni 500 Mbit/s gacha tejash imkonini bermoqda.


Tizimning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini 16 Gbit/s gacha ko‘tarish imkoniyati mavjud.

Xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish umumiy tezligi 10,3 Gbit/s tashkil etdi va 2013-yil boshiga nisbatan 132 foizga o‘tdi.

Bugungi kunga kelib, XPKMga ulangan operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun belgilangan tarif 1 Mbit/s uchun 312 AQSh dollarni (10 – Rasmdagi ko‘rsatkich) tashkil etib, 2013-yil boshiga nisbatan 26 foizga kamaytirilgan.

Keng polosali texnologiyalar asosida, jumladan FTTx arxitekturasi hamda xDSL texnologiyasini rivojlantirish asosida foydalanuvchilar sonini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijasida, umumiy o'rnatilgan portlar soni 575 mingtani, foydalanilgan portlar soni esa 289 mingtani (2013-yil boshiga o'rnatilgan portlar soni 378 mingtani, foydalanilgan portlar soni esa 202,7 mingtani) tashkil etgan.

2013-yilning boshiga nisbatan o'sish mos ravishda 152,2%, 142,6%ni, 2012-yil boshiga nisbatan esa 2,4 barobar, 1,96 barobarni tashkil etdi.




2.11 - rasm. 2013-yil davomida CDMA-450 texnologiyasi bo'yicha abonentlar sonining o'sishi

2013 yil yakuni bo'yicha CDMA-450 standartidagi mobil aloqa xizmati foydalanuvchilari umumiy soni 334 811 ta bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2012-yil yakuni bo'yicha 193 229 tani tashkil etgan. Hisobot davrida mijozlar soni 141 582 taga ortib, o'sish sur'ati 173% ni tashkil etdi. Abonentlar sonini yanada oshirish maqsadida qo'shimcha 32 800 ta statsionar telefon apparatlari keltirilgan bo'lib, yana 60 000 ga yaqin mobil telefon apparatlari hamda 10 000 ta tashqi antennalarni harid qilinishi rejalashtirilgan.

Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar, jumladan, "Yagona Oyna" tamoyili asosida xizmat ko'rsatuvchi shahobchalar loyihasining samarasini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2011-yil 6-apreldagi PQ-1615-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik va o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, “O‘zbektelekom” AK 2011-yilda butun mamlakat bo‘ylab “Yagona oyna” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatuvchi 50 ta, 2012-yilda 94 ta savdo ofislarini foydalanishga topshirdi.



2.12 - rasm. Savdo ofislari sonining o‘shish dinamikasi

Respublikamiz mustaqilligining 22 yillik bayrami arafasida 11 ta va yangi yil bayrami arafasida 8 ta savdo ofislari foydalanishga topshirildi. Hozirgi kunda respublika bo‘yicha 163 ta shinam va qulay savdo ofislar aholiga turli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etmoqda. Mazkur savdo ofislarida 2013-yilda 36 ta yangi ishchi o‘rinlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil uchun investitsion dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2069-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan 2014-yilda yangi, amaldagi ishlab chiqarish korxonalarini qurish, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

2.1 - jadval. 2014 – 2015 yillarda sohada amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan loyihalar tarkibi

Tashabbus va loyihalar turi	Loyihalash quvvati	Amalga oshirish muddati
Jizzax EIH hududida GPON telekommunikatsiya jihozlarini yig‘ish va ishlab chiqarishni	12 ming dona turli mahsulotlar	2014 y.

tashkil qilish		
Jizzax EIH hududida telekommunikatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil qilish	141 ming dona turli mahsulotlar	2014 y.
O'zbekiston Respublikasida EVDO texnologiyasini joriy qilish orqali CDMA-450 mobil tarmog'ini rivojlantirish	qo'shimcha bazaviy stansiya larni o'rnatish	2014 y.
Elektromagnit moslashuv markazining radiomonitoring va teleradiouzatish tizimini modernizatsiya qilish (3-bosqich)	Radiomonitoring tizimi uchun 2 ta teleradiouzatish va uskunalar statsionar stansiyasi	2014-2015 yillar
O'zbekiston Respublikasida FTTx va EVDO texnologiyasi asosida keng polosali optik aloqa tarmoqlarini rivojlantirish	keng polosali tarmoq portlari sonini 110 ming donaga oshirish	2014 y.
«O'zbektelekom» AKning magistral tarmoqlarini O'zbekiston Respublikasi tuman markazlarigacha kengaytirish	aloqa kanallarining o'tkazuvchanlik imkoniyatini oshirish	2014 y.
Unitel MChJ mobil aloqa tizimini kengaytirish (navbatdagi bosqich)	abonentlar sig'imini 11.2 mln.ga oshirish	2014 y.
Surxondaryo, Farg'ona, Namangan viloyatlarida raqamli televideniye tarmog'ini kengaytirish	3 ta raqamli televideniye uzatkichlari komplekti	2014 y.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

3. IQTISODIY SOHALARDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

3.1. Korxona boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'llari

Avtomatlashtirish - bu inson ish faoliyatini mashina va mexanizmlar bilan almashtirish demakdir. U texnik, tashkiliy va iqtisodiy mazmundagi xatti-harakatlar hamda tadbirlar kompleksidan iborat bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni, boshqaruv jarayonining u yoki bu ishini amalga oshirishda inson ishtirokini qisman yoki butunlay cheklash imkonini beradi.

Avtomatlashtirish qachon zarur bo'ladi? Quyidagi hollarda boshqaruvni avtomatlashtirish demak, axborot tizimini va texnologiyani avtomatlashtirish zarur bo'ladi:

- insonning fiziologik va psixologik imkoniyati mazkur jarayonni boshqarish uchun etarli bo'lmasa;
- boshqaruv tizimi inson hayoti va salomatligi uchun xavfli muhitda bo'lsa;
- boshqaruv jarayonida ishtirok etish kishidan o'ta yuqori malakani talab etsa;
- boshqarish kerak bo'lgan jarayon o'ta tang yoki avariya holatida bo'lsa;
- boshqaruv faoliyatini yanada takomillashtirish kerak bo'lsa.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasi (AAT) - boshqaruv vazifalarini hal etish uchun tizimli tashkil etilgan axborot jarayonlarini amalga oshirish usul va vositalari majmuidir. U hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan foydalanish asosida rivojlangan dasturiy ta'minotni qo'llash bazasida bajariladi. Shunday qilib, avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasi texnik vositalardan, ko'proq kompyuterlar, kommunikatsiya texnikalari, tashkiliy texnika vositalari, dasturiy ta'minot, tashkiliy - uslubiy materiallar va texnologik zanjirga birlashgan personaldan iborat bo'ladi. Ushbu harakat zanjiri axborotni yig'ish, uzatish, to'plash, saqlash, qayta ishlash, foydalanish va tarqatishni ta'minlaydi.

Demak, har qanday axborot texnologiyasining maqsadi - belgilangan

tashuvchi vositada talab qilingan sifat darajasida kerakli axborotni olishdir. Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasini bir qator belgilarga, xususan, axborot tizimini avtomatlashtirishni amalga oshirish imkoniyati, avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasining boshqaruv vazifalarini qamrash darajasi, texnologik operatsiyalar sinfi, foydalanuvchining interfeys turi, SHKdan foydalanish variantlari va xokazo xususiyatlariga ko'ra tasniflash mumkin.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasini amalga oshirish usuliga ko'ra, ananaviy va zamonaviy axborot tizimiga bo'linadi. Boshqaruv vazifalarini qamrab olish darajasi bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasining vazifalari ma'lumotlarni avtomat va electron usulda qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Bunda SHKdan foydalangan holda ma'lumotlar qayta ishlash natijasida muayyan iqtisodiy masalalar hal etilib, boshqaruv faoliyatini avtomatlashtirish olib boriladi. Boshqaruv faoliyatini avtomatlashtirishda boshqaruv qarorlarini tayyorlash uchun axborot – ma'lumotnoma rejimida ishlarni va doimiy hisobotni shakllantirish, xizmat vazifalarini kompleks ravishda hal etish uchun hisoblash vositalaridan (jumladan super SHKdan) foydalaniladi.



3.1 - rasm. “Huey Hire” veb platformaning ko’rinishi.

Ushbu ishda “Huey Hire” (www.hueyhire.com) nomli innovatsion veb platforma, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimdan foydalangan holda boshqaruv faoliyatini rivojlantirishni ko’zda tutadi. Innovatsion veb platformani amalga oshirishga bo’lgan talab quyidagi omillarga asoslanadi:


- bugungi kunda respublikamizda davlat muassasalari, korxona va ish unumdorligini oshirmoqchi bo’lgan tashkilotlar (korxonalar) soni kam emas. “Huey Hire” loyihasini amalga oshirish natijasida korxonalar o’zlarining ish unumdorliklarini oshirishlari mumkin;



3.2 - rasm. Korxonaning “Attitude Scale” jadvalidagi kunlik natijalari.

- ko’pgina korxonalarda hamma bo’limlar o’zlariga yuklatilgan vazifalarni vaqtida bajarishga ulgurishmaydi, bu esa korxona va boshqaruvchilar uchun yaxshi natija emas, “Huey Hire” loyihasi bilan hozirda ko’rilgan va boshqa muammolarni yechish imkonini mavjud;

- korxona rahbari istagan bo’limining istagan hodimini test natijalari bilan tanishib va o’rganib chiqishi mumkin, xuddi shunday funksiya oddiy hodimlar uchun ham mavjud, ular qolgan hamkasblarining natijalarini ko’rish va unga izoh qoldirishlari mumkin;



3.3 - rasm. Korxonadagi xodimlarning “Cultural Health Assessment” test tizimidan olgan natijalarini grafik ko’rinishi.

- shuningdek, yangi hodimlarni ishga olayotgan vaqtda “Huey Hire” loyihasida Personal Value Pulse – nomli test turi mavjud, u orqali siz hozirgacha umuman yangi bo’lib turgan inson haqida qandaydir 5-10 daqiqa ichida maksimal darajada kerakli ma’lumotlarga ega bo’lib olasiz.




3.4 - rasm. “Personal Value Pulse” testidan olingan natijalar ko’rinishi.

Loyiha qanday ishlashini quyida ko’rib chiqamiz:


- avvalo tashkilot ro'yhatdan o'tkaziladi, farqi yo'q tashkilot davlat miqyosida katta bo'ladimi ya'ni 100-300 hodimga ega yoki kichik korxona 5-10 kishidan iborat. Loyiha shu tomonlama ham juda puxta ishlangan;

- ro'yhatdan o'tish vaqtida korxonaga kalit beriladi, va shu kalitni ishlatgan holda, hodimlar ro'yhatdan o'tishadi, ular uchun alohida ro'yhatdan o'tish joyi mavjud, u yerda xodimdan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni to'ldirish talab qilinadi ya'ni login, ismi, familyasi, electron manzili, parol, tug'ilgan sa'nasi va qaysi bo'limdan ekanligi (quyidagi rasmda ko'rishingiz mumkin);



3.5 - rasm. Xodimlarning ro'yhatdan o'tish veb sahifasi.

- Bundan keyin ular o'zlarining shaxsiy web sahifalariga o'tadilar albatta login va parol orqali, u yerdan xodim Cultural Health Assessment, Personal Value Pulse va Attitude Scale nomli psixologik testlardan o'tishi mumkin va hamkasblarining yuqorida aytilgan testlardan olgan natijalari haqida ma'lumotga ega bo'la oladi.(quyidagi rasmda ko'rishingiz mumkin).



3.6 - rasm. Xodimning shaxsiy veb sahifasining ko'rinishi.

Loyiha hozirda www.hueyhire.com manzilida joylashgan bo'lib faqatgina ingliz tilida faoliyat olib boradi, va biron korxona yoki tashkilot bu psixologik testdan xodimlarini o'tkazmoqchi bo'lsa, "Huey Hire" kompaniyasi rahbarlariga murojaat qilishi kerak, va kerakli summani to'lagandan so'ng ro'yhatdan o'tish uchun kerakli ma'lumotlar berilad. Bu loyihani respublikamizga joriy qilish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilsa bas deb hisoblayman:

- Veb programist, HTML, CSS, PHP va MySQL, JavaScript va JQuery dasturlash tillarida faoliyat ko'rsatuvchi;
- Psixolog - testlarni o'zgartirish va respublikamizga lokalizatsiya qilish uchun, ya'ni testlarning hammasi bizning tushunishimiz, mentalitetizga to'g'ri kelmasligi mumkin;
- Tarjimon - loyihani o'zbek va rus tillariga psixolog bilan tematik tarzda tarjima qilish uchun;
- Marketolog – platformani O'zbekiston Respublikasi hududida reklama va sotish ishlarini yo'lga qo'yish uchun.

Loyihani amalga oshirish uchun 2 – 3 oy vaqt talab etiladi.

3.2. Korxona boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalalanib marketing tadqiqotlarini olib borish

Marketing faoliyatining axborot va kommunikatsion ta'minlanishi. Har bir korxonaning marketing tizimida axborot asosiy ahamiyatga ega, chunki har qanday marketing faoliyati tovarlar ishlab chiqarish bozorida vujudga kelgan aniq vaziyatni bilishga asoslanadi. Ko'pgina marketing tadqiqotlari va tadbirlarining maqsadi axborotlarga erishishga qaratilgandir. Bu tadbirlarning bajarilishi marketing faoliyatining ob'ekti haqidagi dastlabki bilimlarni talab qiladi, amalga oshirish jarayonining o'zi esa joriy ta'sirlarga tuzatishlar kiritish va bo'lg'uvsi marketing dasturlarini ishlab chiqish maqsadlarida ob'ekt bilan teskari aloqani o'rnatish uchun zarur bo'lgan yangi ma'lumotlarni yaratadi. Tovarni sotish bozori tomon harakatlantirishni tashkil qilish vazifasi bu yerda misol bo'lib xizmat qilishi mumkin, uni yechishdan oldin mahsulotning taklif qilinayotgan turiga nisbatan talabni sinchiklab o'rganish, iste'molchilarning harid qilish qobiliyatlarini baholash, raqobatdagi firmalarning bozordagi faoliyatini tahlil qilish kerak.


Zarur marketing axborotlarining yo'qligi, noaniq va muhim bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanish jiddiy iqtisodiy xatolarning sababi bo'lishi mumkin.

Marketing axborotlaridan foydalanishdan maqsad boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida noaniqliklar darajasini aniqlashdan, kamaytirishdan iboratdir. Bu esa o'z o'rnida turli – tuman axborotlarning katta hajmini yig'ish, saqlash, uzatish va ishlab chiqishni talab qiladi.

Axborotlarga asoslanib va yangi axborot ehtiyojlarini yaratib, zamonaviy marketing axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan, rivojlangan axborot bazasi va kommunikatsiya tizimlarini yaratmasdan samarali marketing faoliyatini yuritish mumkin emas.

Axborot mahsulotlari va xizmatlari marketingida kompyuter texnologiyalarini qo'llash – davr talabi. Marketing ma'lumotlarini doimo kuzatish va saqlash tizimida axborotlarni yig'ish boshqa marketing operatsiyalari orasida

katta o'rinni egallaydi, chunki u axborotlarning xususiyatlari bo'yicha turli - tuman manbalar bilan bog'liqdir.



3.7- rasm. “Golden Pages” – biznes ma’lumotlari veb saytining ma’lumotlar bazasi ko’rinishi.

Marketing korxonaning ishlab chiqarish va sotish faoliyatini boshqarish tamoyili sifatida tashkil qilinadi. Shuning uchun iste'molchilarning talablarini qanoatlantirish va eng katta foyda olish maqsadlarida bozor ehtiyojlarini har tarafлама o'rnatish nuqtai nazaridan muhitning quyidagi qismlari haqidagi bilimlarga suyanadi:

- tovar va xizmatlar bozori;
- tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish va sotish bozori bilan bog'liq tashqi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Marketing boshqarish tizimidagi axborotlarni shakllantirish va foydalanishning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

1. Axborotlarning muhimligi marketing muhitining holatini, vaqtning har bir lahzasida aks ettirilishini bildiradi;

2. Ma'lumotlarning ishonchliligi, ishlab chiqarish, bozor va tashqi muhitni ob'ektiv holati va rivojlanishini aniq katta tiklanishiga asoslangan;

3. Ma'lumotlarning relevantligi axborotlarni shakllantirgan talablarga to'liq mosligini va keraksiz ma'lumotlar bilan ishlashdan qutilishga imkon beradi;

4. Tavsiflarning to'liqligi marketing muhitining holati va rivojlanishiga ta'sirini shakllantiruvchi va ko'rsatuvchi barcha omillarning ob'ektiv hisobi uchun muhimdir;

5. Ma'lumotlarning maqsadga muvofiqligi ularni ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish sohasidagi aniq maqsadlar va vazifalarga qaratadi;

6. Muvofiqlashtirilganlik va axborot birligi xulosalarda ziddiyatlar, birlamchi va ishlab chiqilgan ma'lumotlarda moslashtirilganlik imkoniyatini yo'qotuvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishni talab qiladi.

Korxonada marketing boshqaruvining axborot tizimlari. Marketing axborot tizimlari (MAT) muammo sohasining butun tarkibiy qismlarini butligi va o'zaro bog'liqligi asosida quriladi.

MAT ning muammo sohasi o'z ichiga ichki va tashqi axborotlar marketing tadqiqotlari va axborotlar tahlilining natijalari tizimini oladi. Ichki axborotlar tizimi – korxona faoliyati va holatining har xil tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Tashqi axborot tizimi – buning yordamida tashqi muhitda vujudga keladigan hodisa va vaziyatlar haqida ma'lumotlar olinadigan manbalar va uslubiy yo'llarga mo'ljallangan.

Axborot – tijorat faoliyatining predmeti sifatida. Korxona marketing axborot tizimlarida kommunikatsion jarayonlarni ahamiyati va xususiyatlari axborotlarni yig'ish, ro'yxatga olish va uzatish hamda korxonaning bozor va ishlab chiqarish jarayonini tartibga solishdagi teskari aloqa vazifasini amalga oshirishda eng ko'p darajada namoyon bo'ladi. Axborotlarni yig'ish va ro'yxatga olish, tashkil qilish bosqichlari marketing faoliyati kommunikatsion jarayonning ajralmas qismi bo'ladi. Ularni amalga oshirish ko'p mehnat talab qilishni tegishli malakaga ega bajaruvchilarning mavjudligi va katta moliyaviy harajatlar bilan bog'liqdir.

Marketingning axborot ta'minoti. Marketingning axborot ta'minoti aniq foydalanuvchilarning axborotga ehtiyojini qanoatlantirishning, uni olish, ishlab chiqish, jamlash va foydalanish uchun qulay ko'rinishda topshirishning maxsus usullari va vositalarini qo'llashga asoslangan jarayondir.

Marketing tadbirlarini bajarish uchun zarur axborotlar majmuasini odatda marketing axborotlar tizimi deb ataladi. Uni shakllanishi va faoliyat yuritishi marketingning axborotli ta'minlanishi tizimiga suyanadi.

Rivojlangan MAT o'z ichiga quyidagi tizimlarni oladi:

1. Ichki axborotlar;
2. Tashqi axborotlar;
3. Marketing tadqiqotlari axborotlari.

Belgilanishi bo'yicha marketing axborotlarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Ma'lumotnomaviy axborot – tanishtiruvchi, yordamchi harakterga ega;
2. Tavsiyali axborot – maxsus marketing tadqiqotlari natijasida yoki bosma nashrlar va tijorat ma'lumotlari banklarida keltirilgan ma'lumotlarining tahlili asosida shakllantiriladi;
3. Me'yoriy axborot – asosan ishlab chiqarish sohasida shakllanadi va o'z ichiga ishlab chiqarishning turli elementlarining me'yorlari va me'yornomalarini hamda me'yoriy qonunchilik hujjatlarini oladi;
4. Signalli axborot – odatda marketing muhiti ob'ektlarining haqiqiy hulqini rejalashtirilganidan chetga chiqishi paydo bo'lishini borishida vujudga keladi.

Chetga chiqishning sabablari belgilangandan keyin ularni bartaraf qilish maqsadida tartibga soluvchi axborotda aks ettirilgan tegishli tadbirlar bajariladi.


O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi, uning jahon integratsion jarayonlariga faol qo'shilishi xorijiy sheriklar foydalanilayotgan eng yangi texnologiyalarini tadbiriq etishga majbur qilmoqda. Bugungi kunda butun jahon bozori kompyuter texnologiyalari bilan to'ladir.

Butun jahonda talab va taklif bo'yicha axborotlar ma'lumotlar bazasida saqlanadi, chunki bozor munosabatlari bozorni baholash bo'yicha huddi shunday

axborot ta'minoti jihatdan qo'llab-quvvatlashga zaruriyat tug'iladi. Bu xususan, hammadan avval yo'ldoshli aloqa kommunikatsion tizimlari, ma'lumotlarning yirik banklariga qaratilgan global axborot tizimlaridir.

Axborotlarni tijoratli tarqatish sanoati va texnologiyalari. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bizning fikrimizcha axborot manbalariga jadal kirishga, ularni olishga, ishlab chiqishga va foydalanuvchi uchun kerakli axborotlarni belgilangan vaqtda va ko'rsatilgan shaklida ishlab chiqishga imkon beruvchi dasturiy texnik qurilmalar, kommunikatsiyalar orgtexnika va aloqa vositalaridir.

Kerakli marketing axborotlarini saqlash, ishlab chiqish va talab qilingan shaklida taqdim etishni ta'minlovchi vosita marketing axborot boshqaruv tizimi bo'ladi.



3.8 – rasm. To'g'ri tashkil etilgan ma'lumotlar bazasining ko'rinishi

Axborotlar sohasi korxonalarida marketingning texnikasi va strategiyasini tadbiq etilishi nafaqat katta hajmdagi tadqiqot va hisoblash ishlari sababli, balki shakllanayotgan axborot mahsulotlari va xizmatlarining tuzilishi, tarkibi va mazmunini rejalashtirishda bozor vaziyatlarini xuddi shunday hisobga olish maqsadida marketing tadqiqotlari jarayonida olingan dastlabki tahliliy axborotlarini talqin qilishning bir ma'noli emasligi va ularni o'zlashtirishning murakkabligi natijasida katta qiyinchiliklari bilan bog'liq. Ushbu holat axborot

mahsulotlari va xizmatlari marketingiga zamonaviy kompyuter texnologiyalarini jalb qilishni talab qiladi.


Marketing axborot boshqaruv tizimlari – bu hammadan avval informatikaning zamonaviy axborot kommunikatsion va dasturiy vositalari asosida faoliyat yurituvchi interaktiv xizmatlarning marketing faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida marketing axborotlarini yig'ish, saqlash, faollashtirish va ishlab chiqishni ta'minlovchi majmuidir.

Hozirgi vaqtda har tomonlama rivojlangan jamiyatni axborotlashgan deb ataydilar. Zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli insonning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyati, uning kundalik muloqot sohasi jahon sivilizatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tajribalar, bilimlar va ma'naviy boyliklarni jalb qilish hisobiga haqiqatdan ham chegarasi kengaymoqda.

Inson yashayotgan dunyo moddiy va nomoddiy ob'ektlardan, hamda ular o'rtasidagi aloqalar va o'zaro hamkorliklardan iboratdir. Sezgi organlari asboblar yordamida qayd etiluvchi atrofda dunyoning dalillari ma'lumotlar deb ataladi. Ular aniq vazifalarni hal qilgan taqdirda axborotlarga aylanadi. Vazifalarni echish natijasida yangi bilimlar tizimlashtiriladi, haqiqiy yoki tekshiruvdan o'tgan qonunlar, nazariyalar, tasavvurlar va qarashlarning boshqa majmualari ko'rinishida umumlashtirilgan ma'lumotlar paydo bo'ladi. Keyinchalik bu bilimlarning o'zlari boshqa vazifalarni echish va o'tganlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tarkibiga kirishlari kerak bo'lishi mumkin.

Tijorat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar o'zlarining modellarida foydalanuvchilarning modellarini ham hisobga olishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yaratilayotgan va tarqatilayotgan asosiy tovar «axborot mahsulotlari va xizmatlari» dan iborat. O'z - o'zicha ma'lumotlarning mavjudligi, hatto noyob bo'lsada, agar foydalanuvchi ularni eng qulay shaklda olo'lmasa, tijorat muvaffaqiyatini kafolatlamaydi.



3.9 - rasm. Turli veb saytlarda ma'lumotlarning ko'rinishi.

Eng umumiy ko'rinishda axborotlarni tijoratli tarqatishning zamonaviy texnologiyalarida, foydalanuvchilar o'zlarining terminal qurilmalari yordamida axborot mahsulotlari bilan «muloqot» qiladilar. Ulardan asosiysi ma'lumot bazalari belgilangan muammo sohaga tegishli mashina o'qiydigan shakldagi ma'lumotlar to'plamlari, hamda turli ma'lumotli direktoriyalar MB da foydalanuvchilarga qidirishni engillashtiruvchi rubrikatorlar va boshqa ma'lumotlardir.

Umuman MB sanoatining asosiy tarkibiy tuzilmalari quyidagilar:

1. Axborot mahsulotlari va xizmatlarini shaxsan ishlab chiqaruvchilar:

MB ni ishlab chiqaruvchilar – axborotlarni yig'ish va ularni mashina yig'ish va ularni mashina o'qiydigan shaklga ko'chirishni amalga oshiruvchi iqtisodiy ob'ektlar;

Interaktiv xizmatlar – MB ga interaktiv usulda kirishni amalga oshiruvchilar, ya'ni axborot ma'lumotlari va xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar, hamda interaktiv xizmatlar bozorining asosiy elementi bo'yicha iqtisodiy ob'ektlar;

2. Telekommunikatsion xizmatlar;

3. Foydalanuvchilar yakuniy va oraliq foydalanuvchilarga yoki o'z mijozlariga axborot qidirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi vositalarga bo'linadilar.

Axborot marketingini tashkil qilish. Axborot faoliyatining tijoratlashgani sari unga ishlab chiqarishning, boshqarishning bozor tamoyillari sifatida marketingning umumiy tamoyillari asoslana boshlandi, bunda xo'jalik qarorlarini qabul qilishning asosida bozor axborotlari yotadi, qarorlarning asoslanganligi esa tovarlarining sotilishi bilan tekshiriladi. Buning natijasida axborot marketing vujudga keladi.

Axborot marketingining elementlari quyidagilardan iborat: - axborot bozorini tahlil qilish;

- axborot mahsulotlari va xizmatlarining narxlarini shakllantirish;
- axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar bilan ularni foydalanuvchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarini o'rnatish;
- reklama – targ'ibot tadbirlari.

Axborot bozorining tahlili. Axborot marketingi dasturining ushbu bosqichi taklif qilinayotgan axborot mahsulotlari va xizmatlari uchun ularning vazifaviy parametrlariga mos keluvchi ehtiyojlarini aniqlash orqali bozor holatini belgilashga qaratilgan. Uni o'tkazishning natijasi quyidagilarga nisbatan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo'ladi:

- qanday axborot MABga kiritilishi kerak;
- foydalanuvchi MAB bilan ishlashga rozi bo'lishi uchun qanday talablar qanoatlantirilishi kerak.

Quyidagi savollarga javob berish uchun ikkita asosiy usul qo'llaniladi:

- mavjud MAB analoglari yoki mahsulotlarining tahlili;
- talabning tahlili, bozor sigmentlariga ajratish uning asosiy elementi bo'ladi.

Judayam tez o'zgarib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda, jamiyatimizning har bir a'zosidan fan va ilmiy-texnika yutuqlariga asoslangan zamonaviy bilimlarni mukammal o'rganish talab etilmoqda.

4. HAYOT FAOLİYATI XAVFSIZLIGI

4.1. Baxtsiz xodisalar va ularni tergov qilish

Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan barcha baxtsiz xodisalarni tekshirish va hisobga olish O'z.Res.Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286 sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga asosan olib boriladi.

Baxtsiz xodisa ish boshlanishdan oldin ish davomida ish vaqtidan keyin ish joyida yoki undan tashqarida yuz bersa ham uni tekshirish lozim. O'tkir zaxarlanish, issiq urish, tananing ba'zi joylarini muzlashi baxtsiz xodisaga kiradi va uni tekshiriladi.

Kamida bir ish kuni yo'qotilgan baxtsiz xodisa 24 soat davomida tekshiriladi va maxsus forma bo'yicha (N-1) 3 nusxadan akt tuzilinadi.

Aktda baxtsiz xodisaga uchragan kishi xaqidagi ma'lumotdan tashqari aniqlangan baxtsiz xodisaning sababini va bunday voqea qaytarilmaslik uchun qanday chora tadbirlar ko'rilganligi haqida axborat beriladi.

Aktni korxona bosh muxandisi tasdiqlab beradi. Aktning bir nusxasi sex boshlig'iga va u bosh muxandisning belgilagan muddat davomida aktda ko'rsatilgan masalalarni amalga oshirish kerak. Ikkinchi nusxasi kasaba uyushmalar qumitasiga, uchunchi nusxasi mexnatni muxofaza qilish bo'limiga nazoratni o'rnatish uchun yuboriladi. Aktlar 45 yil saqlaniladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisa to'g'risidagi xabar berish sxemasida:

1. Korxona nomi;
2. Xodisa yuz bergan sana, vaqt, joy, bajarilayotgan ish va baxtsiz xodisa yuz berilganligi xolatining qisqacha tavsifi;
3. Jarohatlanuvchilar soni;
4. Jaroxatlanganning ism sharifi;
5. Xabar yuborilgan sana, vaqt, xabarni imzolagan shaxsning ismi va lavozimi.

Baxtsiz xodisa tekshirilgandan so'ng yo'l qo'yilgan xatoliklar qaytarilmasligini ta'minlash uchun buyruq e'lon qilinadi.

Baxtsiz xodisa o'lim bilan tugasa yoki og'ir jarohatlanish bo'lgan bo'lsa, bunda maxsus komissiya tuziladi. Komissiya tarkibida kasaba uyushmasining texnik nazoratchisi, yuqori xo'jalik tashkilotining xodimlari, davlat nozorati organlari xodimlari va umumiy baxtsiz xodisani tekshirishda ishtirok etadigan xodimlar qatnashadilar.

Tekshirish tez kunlarda o'tkazilib, 7 kun ichida tayyor bo'lishi kerak. Aktga baxtsiz xodisani ko'rgan guvoxlarning ko'rsatmalari, tibbiy ekspert xulosasi, baxtsiz xodisa yuz bergan joyning fotosur'ati va komissiya chiqargan xulosasini tasdiqlovchi boshqa materiallar bo'lishi kerak. Aktda baxtsiz xodisaga javobgar shaxsning ism sharifi va lavozimi yozib qo'yiladi.

O'z.Res.sida kasbiy zaharlanish va kasb kasalliklarining oldini olish uchun kerakli qonun va tavsiyanomalarni ishlab chiqarish va tasdiqlash, shuningdek va kasb kaslligi vujudga kelganda ularni xisobga olish va tekshirish ishlari O'z.Res.si Sog'liqni saqlash vazirligi tashkilotlariga topshirilgan.

Jaroxatlanish va kasb kasalliklarini o'rganish usullari. Baxtsiz xodisalar sababini o'rginish va taxlil qilishda statistik, topografik, monografik, ergonomik, iqtisodiy va boshqa usullar qo'llaniladi.

Statistik usuli N-1 shakildagi dalolatnomadagi baxtsiz xodisalarni tavsiflovchi ma'lumotlarga asoslangan. Bu usul orqali jarohatlanishning quyidagi asosiy nisbiy ko'rsatgichlar: tez-tez -takrorlanish ko'effitsenti K_t va og'irlik ko'effitsenti K ish vaqtini yo'qotish, o'lim sonini ko'rsatish ko'effitsenti K_p va jarohatlanish darajasini aniqlash K_u .

Jarohatlanishning tez-tez takrorlanish ko'effitsenti

$$K_t = 1000 \cdot T_1 / R \quad (4.1)$$

bu yerda: T_1 - tekshirilayotgan davr ichida jarohatlanganlar soni: R -shu davr oralig'ida ishlagan ishchilarning o'rtacha soni.

Jarohatlanishning og'irlik ko'effitsenti K_{og} xisobot davridagi ishga yaroqsiz kunlar sonini tekshirilayotgan davr ichida jarohatlanganlar soniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_{og} = D_{ya} / T_1 \quad (4.2)$$

bu yerda Dya –hisobot davridagi ishga yaroqsiz kunlar soni.

Ish vaqtini yo'qotish ko'effitsenti K_y 1000 kishi hisobiga hisob kitob qilinadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_a = 1000 D Y_a / R \quad (4.3)$$

O'lim miqdorini ko'rsatuvchi ko'effitsent K_u o'zicha o'lim bilan tugagan xodisalarning Iu sonini 10 darajasi 4 ga ko'paytmasini o'rtacha ishchilar soniga nisbatidir:

$$K_u = 10 I_u / R \quad (4.4.)$$

Topografik usulda baxtsiz xodisa sodir bo'lgan joy aniqlaniladi. Buning korxona bosh rejasida baxtsiz xodisa bo'lgan joy shartli belgi bilan belgilaniladi. Bunda baxtsiz xodisalar tez-tez takrorlanadigan joylar yaqqol ko'rinadi, bu esa ularning sodir bo'lish sabablarini yo'qatishga doir shoshilinch choralar ko'rishga imkon beradi.

Monografik usulda aniq ish joyi texnik jarayonda yuzga kelgan zararli yoki xavfli omillar taxlil qilinadi. Bu usuldan foydalangan xolda, baxtsiz xodis sodir bo'lgan barcha xolatlarni chuqur o'rganiladi.

Ergonomik usulda mexnat turlarining o'ziga xos tomonlari ergonomik omillarning mexnat xavfsizligiga ta'sir darajasi baxolanadi.

Iqtisodiy usullarida ishlab chiqarishdagi jarohatlanishdan keltirilgan iqtisodiy zarar, shuningdek mexnat xavfsizligiga sarflangan mablag'ning to'g'ri taqsimlanishi baxtsiz voqeani oldini olishga ketgan xarajatlarni samaradorligini aniqlaniladi. Bu usul qo'shimcha usul bo'lib xisoblaniladi chunki u baxtsiz xodisalarni aniqlashga imkon bermaydi.

4.2. Aloqa korxonalari va tashkilotlarida mehnat muxofazasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish va ularning bajarilishi ustidan nazorat

Aloqa xodimlari kasaba uyushmalari yoki viloyat kasaba uyushmalari kengashining texnik nazoratchisi istalgan vaqtda mashina uskunalari, mexanizmlar muvofiqligini, texnika xavfsizligi qoidalari talablari, ishlab chiqarish va yordamchi

binolarning sanitar axvolini, sanitariya me'yorlari talablari, mehnat va dam olish rejimiga amal qilishni, maxsus kiyim-bosh, maxsus poyafzal, maxsus oziq-ovqat va ximoya vositalarining o'z vaqtida berilishini tekshirish uchun aloqa korxonasini ko'zdan kechirish xuquqiga ega.

Xar bir korxonada kasaba uyushma raisi saylanadi, uning qoshida jamoa shartnomasini bajarilishini nazorat etuvchi katta jamoat nazoratchisi boshchiligidagi mehnatni muxofaza qilish komissiyasi ishlaydi, baxtsiz xodisalarni tekshirishda, shuningdek, TX qoidalarini bilishlarini tekshirishda ishtirok etadi.

Sexlar va bo'limlarda kasaba uyushmalari a'zolaridan apparaturalar, asboblarning yaroqligini, ishchi joylarda to'siqlarni, blokirovkalarni, xisoblash qurilmalari va isitish tizimlari ishini, yoritilish axvolini nazorat qiluvchi va tozalik xamda tartibga rioya etuvchi mehnat muxofazasi jamoat nazoratchisi tanlanadi. U ishchi joyida instruktaj (yo'l-yo'riq) o'tqazilishi, sexning barcha xodimlari tomonidan Texnika Xavfsizligi yuriqnomalarini o'rganish, ish vaqti va tartibi rejimi, ta'tillar berilishi, xordiq kunlari, ishchilarni ximoya vositalari bilan ta'minlashni nazorat etadi. Butun aniqlagan kamchilik va nuqsonlar xaqida jamoat nazoratchisi sex ustaci yoki boshlig'iga xabar qilishi va uni ishlab chiqishi lozim. Mehnat muxofazasi bo'yicha barcha komissiya a'zolari jamoa shartnomasiga kiruvchi MM bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

Davlat inspeksiyasi. Jamoa shartnomasi xar yili ishchilar va xizmatchilar jamoasi nomidan va korxona ma'muriyati tomonidan FZMK o'rtasida tuziladi va ma'muriyat, jamoa va xizmatchilarning o'zaro majburiyatlarini belgilaydi. Shartnoma 3 bo'limdan iborat. Mehnat muxofazasi to'g'risidagi bitimdan iborat:


1. Baxtsiz xodisalarni ogoxlantirish, oldini olish bo'yicha tadbirlar;
2. Ishlab chiqarishda kasbiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha;
3. Mehnat sharoitlarini umumiy yaxshilash bo'yicha.

Mehnati muxofazasi bo'yicha tadbirlarga ajratilgan xarajatlarni boshqa maqsadlarga sarflash qatian man etiladi. Shartnomada ijro uchun muddatlar va ma'suliyatli shaxslar ko'rsatiladi. Yil oxirida mehnat muxofazasiga ajratilgan

mablag'larning zichlashtirilgani va tadbirlar bajarilgani to'g'risida xisobot tinglanadi.

Aloqa korxonalaridan mehnat muxofazasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish, shuningdek, davlat va kasaba uyushmalari organlari tomonidan nazoratni tashkil qilishning tarkibiy jadvali 26- rasmda tasvirlangan.

Aloqa ishlab chiqarish-texnika boshqarmalarida (AICHTB) mehnat muxofazasi bo'yicha ishlarni AICHTB boshliqlari, bosh muxandislar va boshliq muovinlari uyushtiradi.



4.1 - rasm. Aloqa korxonalaridan mehnat muxofazasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish

Korxona boshlig'i korxonada mehnat muxofazasini tashkil qilish uchun javob beradi, bosh muxandis va boshliq muovnlari va mehnat to'g'risidagi qonunchilik, TX qoida va me'yorlari, ishlab chiqarish sanitariyasi, ularga bo'ysunadigan bo'limlar, sexlar, uchastkalarda yong'in xavfsizligiga rioya etilishi ustidan to'liq ma'suldir.

Mehnat muxofazasi bo'yicha ishlarning bajarilishi ustidan nazorat uchun bosh muxandisga bo'ysunuvchi mehnat muxofazasi bo'yicha muxandis tayinlanadi.

Raxbar yuqori xavfli ishlar ro'yxatini bilishi, ximoya vositalari va saqlovchi qurilmalar yarog'lilik axvoli va mavjudligi ustidan kuzatib borishi, ventilyatsiya qurilmalari, ish joylarining yoritilishi, ishining to'g'riligini tekshirib borishi, shovqin va tebranishlarning kamayishiga erishmog'i, ishchi va xizmatchilarni ishlashning xavfsiz uslubni ularga o'rgatish, saboqlar uyushtirishi, texnika xavfsizligi qoidalarini nechog'lik bilishlarini davriy tekshirib turishi lozim.

Raxbar, shuningdek, TX qoidalari va me'yorlarini bajarmagan shaxslarni ishdan chetlatishi, agar insonlar xayoti va salomatligiga taxdid solayotgan bo'lsa, mexanizmlar ishini to'xtatishi, jabrlanganga birinchi yordam ko'rsatishni tashkil qilish, baxtsiz xodisalarni tergov qilish va ularni oldini olish yuzasidan choralar ko'rishda ishtirok etishi lozim. Aloqa korxonalarida travmatizmni kamaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar o'tqazish ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadlarida mehnat muxofazasi axvoli ustidan 3-pog'onali nazorat joriy etiladi.

Xar kuni usta yoki brigadir jamoat nazoratchisi bilan birga ishchilar axvoli, uskunalarning sozligi va ximoya vositalarining yaroqliligini tekshiradi. Nuqsonlar topilganda zudlik bilan ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'riladi. Agar nosozliklarni kuchlari bilan bartaraf etish mushkul, imkonsiz bo'lsa, nuqsonu nosozliklar 3-pog'onali nazorat jurnaliga qayd etiladi.

Xar hafta sex boshlig'i katta jamoat nazoratchisi bilan xamkorlikda sexda mehnat muxofazasining axvolini birma-bir tekshiruvdan o'tkazadi, usta tomonidan bildirilgan nosozliklar bo'yicha qarorlar qabul qiladilar, avvalgi tekshiruvlarda

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar bajarilishini nazorat qiladi. Tekshiruv natijalari sex boshlig'i xuddi shu jurnalga yoziladi.

Xar oyda bosh muxandis va mehnat muxofazasi bo'yicha muxandis korxona bo'yicha mehnat muxofazasining axvolini tekshiradi, tekshiruvning 1 va 2 pog'onalarida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etilishini nazorat qiladi.

Tekshiruv natijalari korxona bo'yicha buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat muxofazasi bo'yicha muxandis muntazam TX qoidalar va me'yorlari, ishlab chiqarish sanitariyasi, yuqori turuvchi tashkilotlar farmoyishlari, nazorat qiluvchi organlari xujjatlarining ijrosini nazorat qiladi.

U yangi qabul qilingan xodimlar bilan ilk yuriqnomani o'tadi, TX bilimlarini tekshirish bo'yicha komissiyalar ishi va ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalarni tergov qilishda ishtirok etadi.

Xar yili korxonalar N21-T shaklida reja bajarilgani to'g'risidagi hisobotlarni tuzadilar va ularni yuqori turuvchi xo'jalik va kasaba uyushma tashkilotlariga yuboradilar.

Xisobotga noqulay sharoitlarda ishlovchilar soni xaqida ma'lumotlar va hisobot yilida me'yorlarga muvofiq xujjatlar kiritiladi.

Hisobotda rekonstruktsiya, kapital remont bo'yicha bajarilgan ishlar xajmi va ishlab chiqarish sexlar, umuman TX qoidalar va me'yorlari talablariga javob bermaydigan uchastkalarni ekspluatatsiyadan chiqarish to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Mamuriy-xo'jalik va injener-texnik ishchi mehnat qonunchiligi va mehnat muxofazasi qoidalarini buzsalor intizomiy, mamuriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga xaqli:

1. Xayfsan;
2. O'rtacha oylik ish xaqining yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorga jarima solish xollari xam nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish xaqidan jarima

ushlab qolish ushbu kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan xolda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3. Mehnat shartnomasini bekor qilish (100–modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llash taqiqlanadi.

Mamuriy jazo - (ogoxlantirish yoki jarima) TX qoidalari yoki sanoat sanitariyasi qoidalari buzilishida aybdor xodimga texnik inspeksiya va sanitar nazorat organlari tomonidan ogoxlantirish yoki jarima solinadi.

Mehnat muxofazasi qoidalari buzilishi, atrof-muxit ifloslanishi ustidan agar bu qonunbuzarliklar oqibatida baxtsiz xodisalar chiqishi mumkin, insonlar salomatligiga zarar etkazsa, mansabdor shaxslar prokuratura organlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

4.3. Turli favqulotda vaziyatlarning umumiy tavsiflari

Favqulodda vaziyatlar tavsifiga ko'ra (sababi va kelib chiqish manbaiga ko'ra):

1. Tabiiy tushdagi FV;
2. Texnogen tushdagi FV;
3. Ekologik tushdagi FVlarga bo'linadi.

Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli xodisalar kiradi:

1) geologik xavfli xodisalar: zilzilalar, yer ko'chishlari, tog' o'pirilishlari va boshqa xavfli geologik xodisalar;

2) gidrometeorologik xavfli xodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik xodisalar;

3) Favkulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar: aloxida xavfli infeksiyalar (ulat, vabo, sargayma, isitma), yukumli kasalliklar,

rikketsiyalarepidemik toshmalı terlama, brıl kasallıgı, zoonoz infektsiyalar - sibir yarası, kuturish, viruslı infektsiyalar - SPID.

Epidemiya - odamlarning gurux bo'lib yuqumli kasallanishi, ularning zaxarlanishi (zaxarli modda bilan xamda oziq-ovqatdan ommaviy zaxarlanish) epizootiya — xayvonlarning ommaviy kasallanishi yoki nobud bo'lishi; Epifitotiya esa usimliklarning ommaviy nobud bo'lishidir.

Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar. Ekologik tusdagi FVlar asosan 3 xil bo'ladi:

1. Quruqlik (tuproq, yer osti)ning xolati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar: xalokatli kuchkilar — foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida yer yuzasining o'pirilishi, siljishi.

Tuproq va yer sanoati tufayli kelib chiqadigan toksikantlar bilan ifloslanishi, ogir metallar, neft maxsulotlari, shuningdek, qishlok xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'ligi uchun xavf soluvchi kontsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaxarli ximikatlar mavjudligi;

2. Atmosfera (xavo muxiti) tarkibi va xossalari uzgarishi bilan boglik bulgan vaziyatlar:

Xavo muxitining quyidagi ingradientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

- oltingugurtli oksid, azotli oksid, uglerodli oksid, dioksid, kurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi kontsentratsiyalarda antropogen tusdagi boshqa zararlı moddalar;

- keng qo'lamda kislotali xududlar xosil bo'lishi va ko'p miktsorda kislota chiqindilari yog'ilishi;

- radiatsiyaning yuqori darajasi.

3. Gidrosfera xolatining uzgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

- Yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloqxo'jaligi ishlab chiqarishi oqavalari;

- Neft maxsulotlari, odamlarning zaxarlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, tarkibida og'ir metallar, xar xil zaxarli ximikatlar mavjud

chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan eksteremal yuqori darajada ifloslanishi;

- binolar, muxandislik kommunikatsiyalari va uyjoylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar miktsorining ortishi;

- suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin yetishmasligi.

Xozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti — BMT bo'yicha favqulotda vaziyatlarning tavsifiga yana qushimcha qilib:

- a) ijtimoiysiyosiy tavsifdagi FV;

- b) xarbiy tavsifdagi FV ni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga kura bizning mintaqada 7 xil FV turlari tasdiqlangan:

- 1. Zilzilalar, yer surilishi;

- 2. Sel, suv toshqinlari va boshqalar;

- 3. Kimyoviy xavfli ob'ektlarda avariya va falokatlar (o'tkir zaxarli moddalarning ajralib chiqishi);

- 4. Portlash va yong'in xavfi mavjud ob'ektlardagi avariya va falokatlar;

- 5. Temir yul va boshqa transport vositalaridatashish paytidagi avariya va falokatlar;

- 6. Xavfli epidemiyalarning tarqalishi;

- 7. Radioaktiv manbalardagi avariya.

XULOSA

Milliy axborot tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston telekommunikatsiya bozorida yangi texnologiyalar va xizmatlarni joriy etishni muvaffaqiyatli amalga oshirish nazariy jihatdan mumkin bo'lgan bozorni to'g'ri bashorat qilishiga bog'liq bo'lib, bu jarayon ko'plab ta'sir etuvchi omillarga bog'liq murakkab vazifa hisoblanadi.

Yangi turdagi texnologiyalar va xizmatlarni joriy etishning dastlabki bosqichida «elita» bo'lib ko'rinadigan har qanday axborot kommunikatsiya xizmatlari tashkiliy jihatdan sinchkovlik bilan o'ylab ko'rilishi kerak, chunki har qanday «arzimas narsa» ko'zda tutilgan loyihani amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xizmatlarni taqdim etishning qandaydir elementida xizmatlar iste'molchisining vaqt sarfi uning shaxsiy vaqt to'g'risidagi tasavvuriga mos kelmasa, bunday xizmat turi, tashqi tomondan qanchalik jozibali bo'lmasin, talab qilinmay qolib ketadi. So'ngi yillarda «bo'sh vaqt qimmati» tushunchasi tobora iqtisodiy mazmun bilan to'lib bormoqda.

Boshqaruvda yoki bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan har qanday odam, uning ishi qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilgan va axborotlashtirilgan bo'lsa, u qanchalik ilg'or texnologiyalardan foydalansa va uning mahsuloti hamda xizmatlari qanchalik samarali reklama qilinsa, shunchalik yuqori unumdorlik bilan mehnat qiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va informatsion iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida biznesning yangi shakl va turlari, yangi ish konsepsiyalari va yangi tashkiliy strategiyalar vujudga kelmoqda, xalqaro savdo (internet-do'konlar, internet-auktiorlar, internet maydonlar) va raqobat andozalarida siljishlar sodir bo'lmoqda.

Insoniyatning axborot kommunikatsiya texnologiyalari va vositalarining jadal rivojlanishi hamda axborotning inson faoliyatining barcha sohasidagi ahamiyatining sezilarli oshib borishi bilan tavsiflanadigan global axborot jamiyati tashkil topish va rivojlanishi bilan belgilanadi, iqtisodiy munosabatlarning global evolyutsiya fazasiga kirishini, axborot va telekommunikatsion texnologiyalar,

xizmatlarning, axborot va telekommunikasion industriyaning yuz berayotgan konvergenstiyasini, axborot, telekommunikasion va axborot kommunikatsiya xizmatlarining jadal rivojlanshi, yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalari, info-kommunikatsion xizmatlar va sanoatining iqtisodiy samaradorligini oshirish va jamiyatning barcha sohalarida demokratik jamoat institutlarini rivojlantirishdagi hal qiluvchi rolini, axborot kommunikatsiya xizmatlari bozorining yuz berayotgan liberallashtirishini hamda bu bozorda raqobatning rivojlanishini hisobga olgan holda axborot kommunikatsiya xizmatlarining rivojlantirish.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda “O‘zbektelekom” AK faoliyati tahlil qilindi. Kompaniya abonentlari barqaror o‘tib bormoqda, ko‘rsatilayotgan xizmatlarga bo‘lgan talab ortmoqda. “O‘zbektelekom” AK taklif miqdorini talab miqdoriga mos ravishda o‘z vaqtida oshirib borishi lozim.

Davlat organlari va boshqaruvida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ochiq turdagi fuqarolar jamoasini yaratishga, davlat boshqaruv samaradorligini ko‘tarishga, davlat sektori xarajatlarini qisqartirishga, davlat organlari va boshqaruvi bilan fuqarolar hamda xo‘jalik sub‘ektlari orasidagi o‘zaro munosabatlarni yuksalishiga yordam beradi.

Davlat sektoriga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilinishi iqtisodiyotni rivojlanishini tezlatadi, ish samaradorligini oshiradi, davlat muassasalarining ishlab chiqarish O‘zbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi uchun zaruriy shartlari bo‘lib xuquqiy va uyushtirish shartlari hisoblanadi, bu esa o‘z navbatida jamiyatni demokratik o‘zgarishlariga olib kelib aholini axborot resurslarni erkin olishiga, uzatishiga va tarqatishiga xuquq beradi.

Shuningdek, ishda korxona, tashkilot va davlat muassasalarida hodimlarni ish unumdorliklarini oshirish maqsadida “Huey Hire” loyihasidan foydalanish taklifi kiritildi va tahlil qilindi. Agarda tashkilotlar tomonidan bu loyihaga mos ravishda chora va tadbirlar ko‘rilsa hodimlarning aksariyati o‘zlarining ish faoliyatlariga bo‘lgan qarashlari o‘zgaradi hamda ish unumdorliklari ortishiga hech shak-shubha yo‘q.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasining qonun, farmon va qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasining "Aloqa to'g'risida"gi Qonuni. 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. 1997-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi Qonuni. 1999-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni. 2002-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. 2003-yil.
6. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni. 2004-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-martdagi 165-sonli "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 27-noyabrdagi 458-sonli "Telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 23-maydagi 230-sonli "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, "Internet" axborot tizimlariga keng kirib borishni ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 6-iyundagi 200-son "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

Prezident I.A.Karimovning ma'ruzalari va asarlari

12. I.A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: -"O'zbekiston", 1995 y. 270 bet.
13. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: -"O'zbekiston", 1997 y. 276 bet.
14. I.A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz—jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. -T.: "O'zbekiston", 2005 y. 165 bet.
15. I.A.Karimov. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish—barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. -T.: "O'zbekiston", 2007-y. 200-bet.
16. I.A.Karimov. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. // Xalq so'zi, 2007-yil 8-dekabr.
17. I.A.Karimov. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir. -T.: "O'zbekiston", 2007.
18. I.A.Karimov. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. -T.: "O'zbekiston", 2008-y. 17-bet.
19. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: "O'zbekiston", 2008-y. 58-bet.
20. I.A.Karimov. Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz.//Xalq so'zi, 2008-yil 7-dekabr.
21. I.A. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari //T: "O'zbekiston", 2009-y. – 56-bet.

Asosiy qo'llanma va adabiyotlar

22. Alimov R.X., Yulchiyeva G.T., va boshqalar "Axborot texnologiyalari va tizimlari" darslik-T.: TDIU, 2010y.

23. Балдин К. В., Информационные системы в экономике: Учебник. – 3-е изд.- М.: Издательство-торговая корпорация «Дашков и К» 2006 – 395 с.
24. G'ulomov S.S., Alimov R.X., va boshqalar. “Axborot tizimlari va texnologiyalari” “Sharq”, T-2000 y.
25. Белокнов А.В. и др. Менеджмент организации; современные технологии, Ростов на Дону, “Феникс”, 2002.
26. Голубецкая Е.А. и др. Экономика связи. М. РиС 2006 г.
27. Горелик М.А. Экономика связи. М.: "Радио и связь", 2000 г.
28. Демина Е.В. и др. Менеджмент предприятий электросвязи. М.: «Радио и связь», 2001 г.
29. Дракер П.Ф. Инновации и предпринимательство. М., 1992. 234 с.
30. Максимцев М.М., Комарова М.А. Менежмент. М., “Единство”, 2002
31. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligini 2008 yil 3 sentyabrda 258-sonli “Aloqa va axborotlashtirish sohasida innovasion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiriq etishni rahbatlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i.
32. O‘zbekiston aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya texnologiyalari davlat qo‘mitasining 2012-2013 yillar uchun moliyaviy va statistik ma’lumotlari.
33. “O‘zbektelekom” AKning 2012-2013 yillar uchun moliyaviy va statistik ma’lumotlari.
34. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qumitasining 2012-2013 yillar uchun statistik ma’lumotlari.
35. Muxitdinov X.A., Iminov O.K. Problemy povysheniya finansovo-ekonomicheskoy effektivnosti infokommunikatsionnykh uslug v Uzbekistane. Dissertasiya na sois. uch.st. k.e.n. Tashkent “Akademiya” – 2007 g.
36. Шибаршова Л.И. «Развитие сферы почты и телекоммуникаций Республики Узбекистан в период рыночных преобразований (макроэкономические аспекты)» автореферат диссертационной работы. Ташкент.; АН РУз, 2001.

Internet resurslari

37. ccitt.uz – O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, Axborotlashtirish va Telekommuni-katsiya Texnologiyalari Davlat Qo‘mitasi veb sahifasi.
38. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi veb sahifasi.
39. gov.uz – O‘zbekiston Respublikas Hukumat Portali veb sahifasi.
40. tas-ix.uz – Tas-IX tarmog‘i rasmiy veb sahifasi.
41. uztelecom.uz – “O‘zbektelekom” AK rasmiy veb sahifasi;
42. uzmobile.uz – “O‘zbektelekom” AK “Uzmobile” filiali rasmiy veb sahifasi;
43. uzonline.uz – “O‘zbektelekom” AK “Uzonline” filiali rasmiy veb sahifasi;
44. uzdc.uz – “Uztelecom Data Center” rasmiy veb sahifasi;
45. uzinfocom.uz – UZINFOCOM Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi.
46. my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
47. fond-ict.uz – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘ar-masi.
48. www.uz – Milliy internet qidiruv tizimi.
49. id.uz – Yagona identifikatsiya tizimi veb sahifasi.
50. hueyhire.com – Huey Hire platformasining veb sahifasi